

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI  
«Kasb ta'limi va pedagogika» kafedrasi**

# **PSIXODIAGNOSTIKA**

**(Ma'ruzalar matni)**

**Qarshi –2012**

Psixodiagnostika fani bo'yicha ma'ruzalar matnlari mualliflar tomonidan muayyan tizimga kiritilgan. Unda psixologik pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari, metodlari va bosqichlari, ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilish usullari va nihoyat psixodiagnostikaning psixometrik asoslari kabi masalalarini o'z ichiga qamrab olgan. Ma'ruzalar va amaliy xususiyatli matnlar kasb ta'limi yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:** **Z. Botirov, Z. Raximov - QarMII**

**Taqrizchilar:** **Q. Mustafaev - TATU Qarshi filiali dosenti, p.f.n.**  
**L. Beknazarova - QARDU dosenti, p.f.n.**

Ma'ruzalar matni "Kasb ta'limi va pedagogika" kafedrasining 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli, «Kasb ta'limi» fakulteti Uslubiy komissiyasining 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli, Institut Uslubiy Kengashining 20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan

## KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimiz miqyosida yoshlarni tarbiyalash jarayonida olib borilayotgan ulkan o'zgarishlar, islohotlarning asosiy bosh maqsadi har tomonlama bilimli, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, ma'naviy etuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz: “Bugungi kunda yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'yimoqda. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek ishonaman”<sup>1</sup> deb ta'kidladi. Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning bo'limida ko'rsatib, o'tilgan talaba yoshlarning ijtimoiy psixologik bilimlarini dunyoqarashini boyitish, ularda jamoadagi shaxslararo munosabat, guruhda psixologik muhitni shakllantirish ko'nikmalarini boyitish, ijtimoiy psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Psixodiagnostika fani talabalarda umumiy psixodiagnostik bilimlarni shakllantirish, ularni shaxsdagi psixologik xususiyatlar, kamolatga erishish yo'llarini, shaxs xususiyatlaridagi o'zgarishlar va ularning oqibatlarini, shaxs bilan atrof muhit o'rtasidagi munosabatlarning psixologik mohiyatini tashxis etish, ularni tahlil etishga va natijalarni psixologik sharhlashga qaratilgan. Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar o'zining pedagogik faoliyatida psixologik-pedagogik diagnostika bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. Psixologik-pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy asoslari “Yosh davrlari fiziologiyasi va gigienasi”, “Psixologiya-Pedagogika”, “Umumiy diagnostika”, “Yosh psixologiyasi” fanlaridir.

Fanning asosiy maqsadi, talabalar psixologiyasining turli sohalaridan psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish ayniqsa, shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir. Shuning uchun mazkur kurs asosan amaliy xususiyatga ega, lekin nazariya bilan uyg'unlashgandir.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: “O'zbekiston”, 2012 y. 36-bet.

# **1-Mavzu: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING VAZIFALARI VA MAQSADLARI**

**Режа:**

- 1.1. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari**
- 1.2. Talabalarni psixologik pedagogik diagnostikasining nazariy asoslari yo'nalishlari, bosqichlari va tamoyillari**
- 1.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatlarni rivojlantirish**

**Tayanch iboralar: O'quv-tarbiya jarayoni, Pedagogika, Psixologiya, Psixologik-pedagogik diagnostika, Shaxs psixologiyasi,**

**Adabiyotlar: 1,2,4,6,9,11**

## **1.1. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari.**

Pedagoglar, shu jumladan muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganligi etarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini taxlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik to'g'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Shu sababli o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri-ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning o'zni, ahamiyati qanchalik katta ekanligini hech kim in'kor qilmaydi. Individual yondoshish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan.

Psixologik-pedagogik diagnostika- pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.

Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- a) talabalarni psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, yo'nalishlari, bosqichlari va prinsiplari bilan tanishtirish;
- b) diagnostika qilishning turli metodikalarini amalda qo'llashga o'rgatish;
- v) o'quvchilar psixologiyasida, xulq-atvorida yuz bergan salbiy o'zgarishlarni tuzatish, ularga yordam berish usullari bilan qurollantirish;

Uning maqsadi- ta'lim va tarbiya jarayonida shakllantirilayotgan o'quvchining individual sifatlarini, rivojlantirilishi yoki shakllantirilishi lozim

bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi (boshlang'ich) darajasi va o'quv jarayonidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganishdir.

Yuqoridigilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostika predmeti sifatida avvalombor o'quvchining ta'lim jarayonida (masalan, bilim darajasi) va tarbiya jarayonida (xarakter xususiyatlari) shakllantiriladigan sifatlarini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, pedagog o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar (o'quvchining tafakkur xususiyatlari, xotirasi, diqqati), tarbiya jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan xususiyatlari (xulq-atvor motivlari, o'quvchining ehtiyojlari va qiziqishlari)ni o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogning diagnostik faoliyati ham ko'p qirrali va o'zgaruvchan xarakterga egadir.

**1.2. Talabalarni psixologik pedagogik diagnostikasining nazariy asoslari yo'nalishlari, bosqichlari va tamoyillari.** Fan tarixga nazar tashlasak, 20-30 yillarda psixologiya, pedagogika va boshqa fanlar sohasida to'plangan tajriba va bilimlarni umumlashtirish, ulardan ta'lim tarbiya jarayonida umumli foydalanish borasida katta ishlar amalga oshirilgan. Bu borada shu yillarda “umumiy va universal fan” sifatida rivojlantirila boshlangan “PEDOLOGIYA“ “yulduzlaridan” P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiylar tomonidan pedagogik psixodiagnostika sohasida amalga oshirgan ishlari, ishlab chiqilgan nazariy bilimlari hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Ammo 1936 yilda pedologiyaning qattiq tanqid qilinishi oqibatida pedologiya va pedologik qarashlar butunlay yo'qqa chiqarildi. Bu esa psixologiya (aniqrog'i shu davrdagi “Psixotexnika”) va pedagogika fanlarining ham rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Faqat 50-60 yillardagina psixodiagnostika, pedagogik psixodiagnostika birozgina jonlandi. Ammo pedagogikada, shu jumladan xozirgi zamon pedagogikasida ham maxsus ravishda testlar, so'rovlar o'tkazilishi kam uchraydigan xol bo'lib, asosiy tadqiqotlar psixodiagnostika sohasida olib borilganligi ma'lum. Hozirgi vaqtda ham psixodiagnostik tadqiqotlar orasida pedagogik diagnostika ishlari keng, etarli darajada, atroflicha va chuqur olib borilmoqda.

Sobiq SSSRda “pedagogik diagnostika” termini 50-60 yillarda A.S.Belkin tomonidan turli jurnallardagi maqolalarda kiritildi. Pedagogik diagnostikaning atamalari va metodologiyasi u tomonidan 1979 yilda “O'quvchilarning pedagogik qarovsizligi” nomli o'quv qo'llanmasida betafsil bayon qilindi (1).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 80 yillargacha “Pedagogik diagnostika” atamasi asosan maqolalarda, turli tezislar yoki kam tirajli to'plamlarda uchraydi. 80 yillardan boshlab esa, shu vaqtgacha pedagogika va psixologiya fanlarining hamkorlik sohasi sifatida shakllanib, rivojlanib kelayotgan, ko'pchilik alohida bilim va tajriba sohasi, deb qaramayotgan, bu soha eng dolzarb sohalardan biriga aylanmoqda.

Buning isboti sifatida quyidagi dalillarni keltirishimiz mumkin:

1987 yilda A.I.Kochetov tahriri ostida “Maktabda pedagogik diagnostika”, 1988 yilda N.K.Golubevning “Tarbiya jarayonini diagnostika va prognoz qilish” asarlari bosmadan chiqdi. 1990 yilda, Toshkentda K.Z.Zaripovning “O'qituvchilar malakasini oshirishning uzluksiz tizimida pedagogik diagnostika”, 1992 yilda, YEkatereburgda YE.A.Mixaylichevning “Pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari” mavzusidagi doktorlik ishlari himoya qilindi.

Chet ellarda bu sohada olib borilgan va rus tiliga tarjima qilinib, o'zbek mutaxassislari ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan ishlardan K.Ingenkampning 1991 yilda bosmadan chiqqan “Pedagogik diagnostika” (muallifning yozishicha “pedagogik diagnostika atamasi u tomonidan 1968 y. taklif qilingan va kiritilgan), va E.Stounsning “Psixopedagogika”. Ta'limning psixologik nazariyasi va amaliyoti” (1984), bir guruh nemis psixodiagnostlari tomonidan tayyorlangan “Psixodiagnostika: nazariya va amaliyot” (1986) kabi asarlarini ko'rsatish mumkin.

**1.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatlarni rivojlantirish.** Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida bilimlarni baholashning reyting tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, shu jumladan test metodining bilimlarni baholash usuli sifatida keng qo'llanilishi, turli psixologik metodikalarga, ayniqsa, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarning oshishi Respublikamizda pedagogik va psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishiga katta turtki berdi. Psixologik-pedagogik diagnostika bugungi kunda maktab, bog'cha va boshqa turli tipdagi o'quv bilim yurtlari psixologlari va pedagoglari oldida turgan muhim vazifalar, ularning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanmoqda va rivojlanmoqda.

Psixologik-pedagogik diagnostikaning rivojlanib kelayotgan fan tarmog'i ekanligini, uning amaliy va dolzarbligi bilan bir vaqtda bu sohaning aniq chegaralari, boshqa fanlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari hozircha to'liq tarkib topmaganligini ko'rsatib o'tish lozim.

#### **Nazorat savollari:**

1. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
2. Talabalarni psixologik pedagogik diagnostikasining nazariy asoslari yo'nalishlari, bosqichlari va tamoyillari bilan tanishtiring?
3. Shaxs psixologiyasida, xulq-atvorda yuz beradigan salbiy o'zgarishlarni tuzatish, ularga yordam berish usullarini sharqlab bering?
4. Psixologik pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatlarni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak?

## **2- Mavzu: PSIXOLOGIK-PYEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING ASOSIY YO'NALISHLARI.**

### **Reja:**

- 2.1. Psixologik pedagogik diagnostikaning qo'llanishida ahamiyatga ega bo'lgan sohalar**
- 2.2. Psixologik pedagogik yo'nalishlari**
- 2.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari**

**Tayanch iboralar: Ta'lim-tarbiya, Boshqarish va amaliyot, Pedagogik sosiologiya, Psixologik-pedagogik diagnostika, Shaxs psixologiyasi,**

**Adabiyotlar: 2,5,6,8,11**

**2.1. Psixologik pedagogik diagnostikaning qo'llanishida ahamiyatga ega bo'lgan sohalar.** Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini, bu yo'nalishlarning mohiyatini psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik amaliyotning qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bo'lmaydi. Biz quyida psixologik-pedagogik diagnostika qo'llanilishi juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri nechatasini shartli ravishda (hayotda esa ular umumiy, bitta pedagogik jarayonning ajralmas qismlaridir) ajratib oldik. Ular quyidagilar:

1. Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi.
2. Boshqarish va amaliyot.
3. Didaktika va xususiy metodika.
4. Pedagogik sosiologiya.
5. Ijtimoiy psixologiya.
6. Pedagogik psixologiya.

Bu sohalarning asosiy vazifalari, predmeti pedagogik va psixologik adabiyotlarda, o'quv qo'llanmalarida juda keng yoritilganligini hisobga olib ularga batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

Yuqorida keltirilgan har bir sohada psixolog yoki shu sohalarga qiziquvchi mutaxassislar ma'lum diagnostik ishlarni amalga oshiradilar. Mana shu ishlar majmuasi psixologik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi.

**2.2. Psixologik pedagogik yo'nalishlari.** Har bir sohada o'ziga xos diagnostik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni psixologik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi (Mixaylichev E.A.,1997)

1. Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish.
2. Tashkiliy-metodik diagnostika.
3. Didaktik diagnostika.
4. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika.
5. Ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika
6. Pedagogik psixodiagnostika.

Yo'nalishlarning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

**TARBIYALANGANLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH-** bu yo'nalish o'quvchilarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odob ahloqini, tarbiyalanuvchanligini (tarbiyaviy ta'sirlarga berilishi)ni o'rganishdan iboratdir.

**TASHKILIY - METODIK DIAGNOSTIKA** - pedagoglarning kvalifikatsiyasini, o'quv jarayonining uslubiy ta'minlanganlik darajasini baholashdir.

**DIDAKTIK DIAGNOSTIKA-** pedagogik jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o'quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). O'quvchilarning og'zaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o'quv faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni, o'quvchilarda o'quv, mehnat malaka va ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari diagnostika qilinadi.

**IJTIMOIIY-PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA-** o'quvchilarning pedagogik qarovsizligi, moslashganlik darajasi, tarbiyasi og'ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo'nalishdir. Diagnostika pedagoglar tomonidan maktabdan, o'quv yurtidan tashqarida olib boriladi. Shu sababli diagnostika jarayonida oila sosiologiyasi va iqtisodi, xuquq sosiologiyasi, dam olish sosiologiyasi, iqtisodiy sosiologiya kabi sohalarda qo'llaniladigan metodikalar va ko'rsatkichlardan foydalanishni taqozo qiladi.

**IJTIMOIIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA-** bu yo'nalish sosiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, o'quvchilar, pedagoglar, ota-onalar guruhlarini, o'quvchilarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va xokazo) ta'sirini, o'quvchilarning burch va xuquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilganidir.

**PEDAGOGIK PSIXODIAGNOSTIKA-** psixologik-pedagogik diagnostikaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o'z-o'zini baholashi, psixologik "himoya usullari"ni, o'quvchi o'zining psixik holatlarini, ularning harakterining asosiy sifatlarini va boshqa individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilganidir.

**2.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari.** Albatta, har qanday fan sohasi o'ziga xos ob'ektga va predmetga va ularga mos keladigan



tatqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik-pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga o'z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi psixologik-pedagogik diagnostika qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko'ra ko'proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanilishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostikaning quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Diagnostika nazariyasi va metodikalarining ilmiy asoslanganligi. Diagnostika ob'ektini yaxlit ravishda genetik va tizimli taxlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar va ularning interpretasiyasining ishonchligi, aniqligini, validligini puxta ishlab chiqilgan metodologik asoslarda ta'minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo'llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muhitga, shu jumladan diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti va o'quv guruhiga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish pedagog-diaagnostilarni turli xil engil, "ko'ziga yaxshi ko'ringan" yoki "qo'lga tushib qolgan" metodikalarni bilib-bilmay qo'llashdan saqlaydi.

2. Diagnostikaning izchilliligi va aniq yo'nalganligi. Psixologik-pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik, pedagogik diaagnostikadan farqli ravishda aniq yo'nalishga, aniq ob'ektga va maqsadga qaratilgan. Shu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt mulohazalardan emas, balki aniq shaxsga (masalan, o'quvchi), aniq guruhga tegishli bo'lishi, diagnostika natijasida aniq xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo'llarini ko'rsatib berishi lozim.

3. Diagnostika shakl va metodlarining optimalliligi. Qo'llanilayotgan metodikalar, o'quvchiga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki pedagog-diaagnostga kam kuch va vaqt sarflab, o'quvchi haqida muhim, sifatli, katta amaliy aqamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishga imkon berishi. Diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun pedagogikada va psixologiyada ko'p yillar davomida qo'llanilib kelayotgan, qulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash va qo'llash zarur.

4. O'rganish ob'ekti haqidagi faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi. O'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va diagnostika jarayonida o'rganilayotgan o'quvchiga yoki o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklari bartaraf qilishda o'quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologik, pedagogik yordamlar berish, to'g'ri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash funksiyalarning birgalikda olib borilishi.

5. Diagnostikaning ketma-ketliligi va uzluksizligi- diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshira borib, o'quv jarayoniga, o'quvchining

o'zlashtirishiga halaqit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalardan keyingi bosqichlarda, o'quv-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi.

6. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommobopligi. Diagnostika metodlarining oddiyliigi, pedagoglar, amaliy psixologlar, o'quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun qulayligi, ularda diagnostika nisbatan qiziqish, intilish uyg'otishga xizmat qilishini ta'minlovchi tamoyil.

7. Diagnostikaning har tomonligiga (kompleksliligi). Bu tamoyil o'quvchi shaxsini, uning individual-psixologik xususiyatlarini, ruhiy jarayonlarning rivojlanganlik darajasini, o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar o'quvchini bir butun holda, har tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondoshish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirish bu tamoyilning asosiy talablaridan biridir.

8. Diagnostikaning o'quvchi rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (prognoz qilish) imkoniyati bera olishi. Har qanday psixologik- pedagogik diagnostika o'quvchining kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonda o'rganilayotgan ob'ektning "kelajagi", ertangi kuni ham, taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlari ochib berilishi kerak. Shu holdagini, prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, o'quvchi taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

### **Nazorat savollari:**

1. Psixologik pedagogik diagnostikaning qo'llanishi?
2. Diagnostika qo'llanishida ahamiyatga ega bo'lgan sohalar?
3. Ta'lim tarbiya nazariyasi metodikasi.
4. Boshqarish nazariyasi va amaliyoti.
5. Ijtimoiy psixologiya
6. Psixologik pedagogik yo'nalishlariga asosan nimalar kiradi?
7. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash.
8. Psixologik pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillarini ko'rsatib o'ting?

### **3-mavzu: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODLARI VA BOSQICHLARI**

#### **Reja:**

- 3.1. Psixologik-pedagogik diagnostikaning metodlari. Testlash aqliy rivojlanishni baholash metodi sifatida**
- 3.2. Intellektual faoliyatni aniqlash.**
- 3.3. Aqliy rivojlanish darajasining aniqlashning hozirgi zamon metodlari**
- 3.4. Pedagogik diagnostik faoliyatning bosqichlari**

**Tayanch iboralar: Test, psixologik testlar, aql, intellekt, faoliyat, metodlar**

**Adabiyotlar: 2,5,6,8,11**

**3.1. Psixologik-pedagogik diagnostikaning metodlari. Testlash aqliy rivojlanishni baholash metodi sifatida.** Testlash individual farqlarni tahlil qilishning ob'ektiv metodi sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelgan.

“Test” tushunchasi birinchi bo'lib u yoki bu ruhiy jarayonlarni va shaxs xususiyatlarining rivojlanganligi darajasini ob'ektiv o'lchashga qaratilgan qisqa standartlashtirilgan vazifalar (savollar), topshiriqlar tizimi sifatida ingliz psixologi F.Galton tomonidan kiritilgan. Inson psixik xususiyatlarining irsiyatga asoslanganligi haqidagi g'oyaga tayangan holda, Galton sensomotor sifatlarni, sinaluvchilarning turli xil sezuvchanlik hislatlarini o'lchash ishlarini olib boradi.

Galton g'oyalari keyinchalik amerikalik psixolog D.Kettell tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Testlashning rivojlanishidagi keyingi qadam test metodining oddiy sensomotor sifatlarni va xotirani tekshirishdan, “aql”, “intellekt”, terminlari bilan belgilanuvchi oliy psixik funksiyalarni o'lchashga o'tishi bo'ldi. Bu qadam taniqli psixologi A.Bine bilan G.Simonning hamkorligida qo'yildi.

Nazariy negiz sifatida o'sha vaqtda hukmron mavqeli funksional psixologiyaning nazariyasi tanlab olingan bo'lib, unda psixik rivojlanish bir qator tug'ma funksiyalarning son jihatidan o'sishi tushunilar edi.

Bu konsepsiyaga ko'ra, Bine shunaqangi vazifalarni tanlashga harakat qiladiki, ularni echish ta'limiga, ya'ni olingan bitimlarga asoslangan bo'lmasin, har bir yosh davri uchun shunday testlarning seriyasini topishimiz kerakki, ularning echilishi shu yoshdagi bolalarga xos, mo'tadil xususiyatli hisoblansin. Testlar maktab bilimlariga nisbatan mustaqil bo'lsin, bu ya'ni sinovlarning natijasi bolaning haqiqiy aqliy qobiliyatlarining ko'rsatkichi, vazifasini

bajarsin: ular xulosaga oxirgi natijalarni bersinki, buni biz sinaluvchining umumiy aqliy iste'dodi sifatida qabul qilaylik.

**3.2. Intellektual faoliyatni aniqlash.** Bolaning intellekti har qanday vazifani bajarishda namoyon bo'ladi, degan g'oyadan kelib chiqqan holda Bine, o'zi tanlayotgan test topshiriqlarini nazariy asoslash zarur, deb bilmadi va testlarni tuzishda asosan intuisiyaga tayandi. Binening bu masalaga nisbatan munosabati uning quyidagi mulohazalarida aniq ko'rsatib berilgan: “farq yo'q, qanday tekstlar bo'lishidan qat'i nazar, eng asosiy ular ko'p bo'lsin”.

Bine va Simon 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan vaqtlarda diqqat, xotira, tafakkurni o'rganishga qaratilgan bir qator eksperimentlarni o'tkazganlar. Statistik metodlar yordamida ishlab chiqilgan natijalar har bir yosh gruppasi uchun norma, ya'ni mezoniy o'lchov, deb qabul qilindi. Bu bilan individual farq belgilash o'z-o'ziga emas, balki bolaning boshiga nisbatan olinib, uning rivojlanishini ko'rsatuvchi normativlarga yo'l ochildi.

Agarda bola o'z tengdoshlarining ko'pchiligi bajargan masalalarni bajara olsa, bu norma deb belgilangan. Biroq bunday masalalar bola uchun juda ham engil yoki aksincha juda ham qiyin bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra “aqliy yosh” (Mental age(MA) tushunchasi kiritilib, u bolaning xronologik yoshiga (chronological Age (CA) mos, kelishi yoki undan farq qilishi ehtimol. Ularning mos kelmasligi yoki aqliy qoloqlikni (MA CA dan qolyapti), yoki undan ilgarilab ketishi ( iste'todliylklarni (MA CA dan ilgarilab ketadi)ning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi kerak edi.

Shu narsani ham aytib o'tish kerakki, Bine o'z hayotining so'nggi yillarida ijtimoiy ta'sirning, avvalambor ta'limining bola intellektual rivojlanishidagi ahamiyati katta ekanligini ta'kidlab o'tgan.

20-yillarda testlari butun dunyoda keng tarqala boshlandi.

Biroq, tez orada testologlar o'rtasida intellektual testlar nimani o'lchashi kerak va intellektning o'zi nima? degan savol muammo yuzasidan kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

1921 yil “Ta'lim psixologiyasi” jurnali sahifalarida bahs-munozara uyushtirildi, bunda yirik Amerika psixologlari ishtirok etdilar. Ularning har birining intellektiga ta'rif berish va intellektni aniqlashning eng ma'qul metodini taxlil qilish so'raladi.

Intellektni o'lchashning (baholashning) eng ma'qul uslubi sifatida deyarli katta olimlar testni tanlashdi, biroq ularning intellektga bergan ta'rifi paradoksallik tarzda bir-birini inkor qilar darajada edi.

Intellekt “abstrakt tafakkur qilish qobiliyati” sifatida belgilanadi.(L.Termen);

“Rostgo'ylik, haqiqat mezon bo'yicha yaxshi javoblar berish jinoyati” (E.Torndayk);

“Muxitga moslashish imkoniyatini ta'minlovchi bilimlarning yig'indisi yoki ta'lim oluvchanlik qobiliyati”(S.Kolvin);

“Nerv sistemasining modifikasiyalarga nisbatan qobiliyati”(R.Pinter) va boshqalar.

Ch.Spirmen 20 ga yaqin intellektga berilgan qator hollarda bir-birlarini inkor qiluvchi ta'riflarni to'plasada va hamma ta'riflarda testlar haqiqatdan ham aniq bir sifatlarni o'lchamasligini isbotlaydi.

Shunday vaziyat vujudga keldiki, bunda har bir testolog qandaydir psixik funksiya yoki uning yig'indisini tekshirib keyin uni intellektning tadqiq etilishi, deb e'lon qila boshladilar.

Aynan bir sub'ekt intellekti diagnostikasida turli xil testlardan foydalanish, bir-biridan tubdan farq qiluvchi ma'lumotlarning olinishi mana shu xolat bilan tushuntiriladi.

Hozirgi davrda ham testologiya nazariyasida taxminan 20-40- yillardagi xol saqlanib qolgan.

Angliyalik psixolog G.Ayzenk esa inson intellektini aqliy jarayonlarning kechishi tezligiga tenglashtirib qo'yadi.

Amerikalik psixologlar R.Kettell va D.Karl intellektni tashkil qiluvchi 2 ta tarkibni ajratib ko'rsatadilar.

“Flyuidli” va “Kristallashgan” .

Intellektning “F” tarkibi bilan irsiy alomat belgilangan va inson faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'ladi. Hamda o'zining yuqori darajasiga ilk bolalik yoshida o'sib o'tgandan keyin erishadi.

Intellektning “K” tarkibi shaxsning hayoti davomida orttirilgan ko'nikma va malakalarning yig'indisidan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu modelda “K” intellekt butunlay irsiy determinasiyaga ega degan tushunchadan uzoqlashganligini bildiradi.

1Q- Intellect lar quotient- intellekt koeffisienti xronologiyaga nisbatan aqliy yoshini o'zida mujassamlashtiradi.

Hozirgi davrda testologlarning o'zlari turli testlardan olingan IQ ni bir-biri bilan taqqoslash noto'g'ri ekanligini tan olmoqdalar.

Yu.Gutke: “Turli testlardan olingan IQ ni bir-biri bilan taqqoslash qiyin narsadir, chunki har xil testlarning asosida turli intellekt konsepsiyalari yotadi va testlarga esa funksiyalar kiritiladi”.

Hozirgi testologiyada yangi sistemadagi testlarning “valid”ligini asoslash uchun ularni mumtoz tizimga taqqoslaydilar. “Eski” va “yangi” testlar bir guruhdagi kishilarga tavsiya qilinadi va agar ular testlardagi natijalar har xil sinaluvchiga mos kelsa, tushganligi aniqlansa, bunday “yangi” test validlikka ega, deb qabul qilinadi. Qadimgi testlar sifatida odatda Bine testlaridan foydalaniladi.

Hozirgi davrga kelib butun intellektual testlash tizimida krizis yuzaga keldi.

Testologiya va psixologiya o'rtasida chuqurlashib borayotgan o'zaro inkor sabablarini tahlil qilish jarayonida 30-yillar psixologiyasidagi A.S.Vigotskiy so'zi bilan aytganda “psixologik krizisni bosib o'tishi maqsadi muvofiqidir.”

Krizis sababi-amaliy psixologiyaning rivojlanishi va butun metodologiyaning amaliyot prinsipi asosida qayta qurilishi bilan, ya'ni uning tabiiy fanga aylanishi bilan bog'liqdir.

“Bu prinsip psixologiyaga tazyiq o'tkazib va uni 2 qismga bo'linishiga majbur qiladi”-deb yozadi u, o'z ishlarida. Texnologiyadagi krizis oqibatida monxometriyaning mustaqil amaliy tadqiqot sohasiga ajratib chiqishi sodir bo'ladi.

Ayrim testologlar (testdan o'tkazish) prosedurasini yuqori darajaga ko'tarishga harakat qiladilar, bunda ular matematik va statistik metodlardan nafaqat test sistemalarini tashkil qilishda, balki shu bilan birga bu testlar asosida yozuvchi intellekt modelidan ishlab chiqishda undan keng foydalanishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, testlashtirishda, intellektni tushuntirishda va baholashda faktorli analiz metodidan foydalanadigan yo'nalish keng rivoj topdi.

Bu yo'nalishning namoyondalari Spirmenning ishlariga tayanadilar.

Faktorli (analiz namoyondalari) testologiyada shunday kuzatishlarga asoslanadilarki, natijada ayrim shaxslar bir xil testlarni yaxshi bajarsalar-da, lekin boshqalarini echishda muvaffaqiyatsiz harakat qiladilar.

Demak, turli testlarni bajarishda intellektning har xil komponentlari ishtirok etadi. Shunday qilib, intellektning har bir komponenti yoki faktor, “test yoki ma'lum turdagi vazifani bajarishga zarur bo'lgan o'ziga xos takrorlanmas qobiliyat bo'lib” va har bir “faktor shunday xususiyatlari bilan xarakterlanadiki, natijada ular u yoki bu xildagi testlarda umumiy bo'lib hisoblanadi”. Bu holdagi intellekt faktorlarining tushunilishi uni aniqlash usullaridan kelib chiqadi.

Sinaluvchilar guruhiga bir qator testlar beriladi. Bundan keyin turli testlarni bajarish natijalari o'rtasidagi bog'liqlik koeffisienti (koeffisient korrelyasii) hisoblab chiqiladi. Agarda bunda bir nechta testlar o'rtasida yuqori darajadagi bog'liq mavjud bo'lsa, bu testlarni bajarishda yagona faktor qobiliyat ishtirok etganligi haqida fikr bildiriladi. Bundan keyin esa ajratib ko'rsatilgan faktorga ma'lum nom beriladi.

Agarda bir nechta faktorlar o'zaro yuqori korrelyasion bog'liqlikka ega bo'lsa, u holda ularni ikkinchi bor faktorli analizga qo'yishadi. Olingan “ikkinchi qator faktori” deb ataluvchi Spirmenning general faktoriga to'g'ri keladi.

Hozirgi davrda Gilford tomonidan yuqorida berilgan usul yordami bilan eksperimental tarzda intellektning 120 dan 90 faktori ajratib ko'rsatilgan.

Sinaluvchining intellektual rivojlanganligi haqidagi ma'lumotni olish Gilford bo'yicha, intellektni tashkil qiluvchi hamma faktorlar shakllanganlik

darajasini aniqlash lozim. Buning uchun ularga bir qator testlar havola qilinib, ularning har qaysi faktorlardan bittasi rivojlanganlik darajasini o'lchash uchun belgilangan.

Gilfordning intellekt xarakteristikasi va uni o'lchashiga yondoshishini tahlil qilgan, ko'pgina tadqiqotchilar uning pozitiv tomonlarini ta'kidlaganlar. L.I. Ansiferova ko'rsatgandek, "faktorli analiz intellektual faoliyatning yangi tomonlarini ilgari suradi, bu esa oldin shakllangan tushunchalarga psixologik tadqiqotlar doirasida yana ham chuqurroq yondashishga imkon beradi.

Bundan tashqari, Gilford ishlari hozirgi testologiyadagi, inson intellekti modelini yaratuvchi unchali ko'p bo'lmagan qiyinchiliklardan biri hisoblanib, intellektual testlarni yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga bu intellekt analizi va diagnostikasi metodini tashkil qiluvchi komponentlarining ko'pgina zaif tomonlari mavjuddir.

Avvalo, Gilford yondashishining empirizmini ta'kidlash joiz. Intellektni faktorlarga ajratib turib, Gilford sinaluvchilarning turli xil intellektual testlar bajarishi natijalarining korrelyasiyasiga asoslanadi. Bunga esa Nebilisin ta'kidlaganidek, sub'ektivizm muqarrardir, u boshlang'ich testlarni tanlashda ham, olingan natijalarni tahlil qilishda ham namoyon bo'ladi.

Buning isboti sifatida testologiyadagi faktorli yondashishning yirik namoyondasi L. Terstounning tadqiqotlari xizmat qilishi mumkin.

Terstoun Gilford foydalangan matematik metodlardan foydalangan holda intellektning modelini yaratdi. U Gilforddagidek 120 emas, balki 7 faktordan iboratdir:

1. Fazoviy qobiliyat.
2. Idrokning tezligi.
3. Sonli materialni o'zlashtirish engilligi.
4. So'zlarni tushunish.
5. Assosiativ xotira.
6. Nutqning o'ynoqiligi.
7. Tushunish yoki mulohaza qilish.

Shunday qilib, Gilford tuzgan intellektning modeli ko'p jihatdan ihtiyoriy xususiyatga ega.

Hatto shuni Gilfordning o'zi tan oladiki, "obrazli elementlarni bilish" deb ajratilgan faktor aslini olganda o'ziga xos 3 xususiyatdan tashkil topgan: kinestetik formalarni tanish, tovush obrazlarini idrok qilish, tanish obrazlarni qayta tanish.

Boshqa tomondan, Gilford ajratgan faktorlar amalda bir qobiliyatni namoyish qilishi mumkin.

Gilfordning tafakkur "faktor" larini o'lchash uchun yaratgan testlari ham ko'p darajada sub'ektiv xarakterga egadir, chunki inson intellektining yaqqol ajratilmagan xarakteristikani o'lchaydi. Haqiqatdan Gilford testlari divergent

tafakkurga Toranson va Djeksonlar tomonidan ishlab chiqilgan shu kabi testlarga bilan juda sust korrelyasiyaga ega.

Shunday qilib, Gilford yondoshishidagi asosiy kenglik, bu o'z "intelekti strukturasini" matematik hisoblash yordamida aniqlangan bo'lib, tashqi korrelyasiyalar asosida qurib, topilgan intellekt "faktor"larning o'ziga xosligi, mohiyatini, uning ichki psixologik bog'ligini ochib berishga harakat qilmaydi.

Shunday qilib, faktorli yondashish testologiyada ko'p uchraydigan kamchiliklarini bartaraf qila olmaydi, chunki ularda eng asosiy intellekt tushunchasining nazariy jihatdan ishlab chiqilmaganligidir.

Ko'pgina g'arbning progressiv psixologlari test tuzishning statistik metodlarini yaxshilash va ularni ishlab chiqishning metodlarini mukammallashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki testlarning nazariy asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taklif qiladilar.

Bu o'rinda M. Koul va S. Skribnerlarning ishlari katta qiziqish uyg'otadi. Turli madaniy sharoitlarda yashayotgan odamlarni bilish faoliyatining o'ziga xosligini o'rgana turib, mualliflar bu ularning bilish qobiliyatlarini baholashda testlardan foydalanmaslikni ma'qul ko'radilar.

Ular ayni bir xil masalalarning muvaffaqiyatli bajarilishi, sinaluvchilar yashayotgan real sharoitga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradilar. Avtorlar u yoki bu masala echilganligining natijasini emas, balki uni echish jarayoni o'zini, sub'ektning muammo hal qilish jarayonida qo'llaydigan usullarni o'rganish muhim, deb bilishlari prinsipial jihatdan alohida ahamiyatga egadir.

Testologiyani qamrab olgan krizis uning asosida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Avvalo kognitiv pozisiya doirasida vujudga kelgan yo'nalishni aytib o'tish kerakki, uning namoyondalari (R.Gleyzer, Dj.Kerrol, S.Lansberg, D.R..Peligrino, N.Frost, E.Xant, V.Estes va boshqalar.) intellektual testlarning har biri individning qobiliyati va bilimiga qo'yadigan talablar nuqtai nazaridan tahlil qiladilar.

Bu bilan testning haqiqiy validligi, uning diagnostika qilishiga qaratilgan mazmun aniqlanadi. Bu yo'nalish namoyondalarining ta'kidlashicha, ishning muvaffaqiyatli ketishida bu kabi izlanishlar psixometrik xulosalarning tabiatini o'zgartirish imkoni tug'iladi. Statistik baholarning o'rniga korreksion amallar qilish borasida muayyan talablar ilgari suriladi. Shu vaqtgacha bir qancha tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda bir qator intellektual testlarning asosida yotuvchi qobiliyatlarning mashqlar asosida erishilishi mumkinligini ko'rsatilgan:

Bu ishlar intellektual testologiyaning kriterial-orientir (mezoniyl mo'ljal) uning qayta qurilishida birinchi qadam bo'lib hisoblanadi. Bu tipdagi testlashning farq qiluvchi tomoni shundaki, bunda qandaydir muhim mazmunli soha (bilimlar va ko'nikmalar) va test tuzilmasi tiklab olinadi, undagi



vazifalarining har biri- bu mazmunli sohaning ma'lum tomonini diagnostika qilishga yo'naltirilganligidir.

Kriterial-orientirlangan testlash individning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan pedagogik testlarda keng qo'llaniladi.

Kriterial-orientir yondashish asosida yaratilgan test individ aqliy darajasi bilan boshqa odamlar orasida qanday o'rin egallaganini ko'rsatibgina qolmasdan, balki individ aqliy rivojlanishi haqida ahamiyatga molik tushuncha berishi mumkin.

Testologiyadagi yangi bir yo'nalish qiziqarli va kelajagi porloq, deb qaraladiki, ularning namoyondalari intellektual testlar sistemasini aqliy rivojlanishning ontogenezdagi psixologik nazariyasiga asoslangan holda yaratishga harakat qiladilar. Bunda J.Piaje nazariyasi asos qilib olinadi. Oldindan shuni aytish kerakki, bu harakatlar muvaffaqiyatsiz tugadi.

Jumladan, amerikalik tadqiqotchi R.Taddenxem J.Piajening operasiyagacha bo'lgan intellektdan konkret operasiyalar darajasiga o'tishdagi bir qancha vazifalarni standartlantirish bo'yicha ish olib bordi va ularni bajarish uchun bolalarga havola qilindi. Olingan natijalarni baholash jarayonida u quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'ta qarama-qarshilik, yoinki vazifalar o'rtasidagi mustaqillikni ko'rib, biz juda hayron qoldik..., bu vazifalarning hammasi rivojlanish uchun berilgan bosqichiga qabul qilingan bo'lsada, lekin ular o'rtasida bog'liqlikning yo'qligi qonun sifatida qaralardi. Vazifalarning formal tafakkurda ishlatilganligida bu xildagi natijalar Britaniya intellekt maktabida va bir qancha boshqa tadqiqotlarda ham olingan.

Gorizontal dekolyar faktlarini analiz qila turib, Taddenxem fikricha, ular "aqliy yoshga xos, yagona rivojlanish bosqichida turgan har bir bolani qarab chiqish va uning ko'rsatkichlari asosida har qanday vazifaning echilishini oldindan aytib berish haqidagi o'ylarni puchga chiqaradilar.

Biz yuqorida aytib o'tgan hamma testologiyaning rivojlanishidagi hozirgi zamon yo'nalishlari ijobiy xarakterga egadir, chunki ular yoki bu darajada testologiyaga xos bo'lgan empirizmdan intellektual rivojlangan, ma'noli, sifatli psixologik talqinga o'tganligi bilan tavsiflanadi.

Biroq sanab o'tilgan ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, unga qarama-qarshi bo'lganlari ham borki, ularning namoyondalari aslini olganda testologiya bilan psixologini butunlay ikkiga ajratishga chaqiradilar. Bunday tendensiyaning yirik namoyondalaridan biri- G.Ayzenkdir. Uning pozitsiyasi quyidagilardan iborat:

Individ aqliy rivojlanish darajasining 80% i genetik jihatdan va faqatgina 20% i ta'lim va tarbiya bilan belgilanadi.

Genetik jihatdan berilgan odamlar orasidagi intellektual farqlar fikriy jarayonlarning tezligini ifodalaydi:

“Oddiy IQ-test bilan talab qilinadigan odamlar o'rtasidagi bilim va malakalar miqdorining farqi, ularning tashqi dunyodan informatsiya olish va foydalanish tezligi farqi bilan tushuntiriladi”.

G.Ayzenk bir qator tadqiqotlarni ko'rsatadiki, ularda individ EEG potentsiali uning intellekt rivojlanishi darajasi bilan tushuntirishga harakat qilinadi. Jumladan, F.Chalke va Dj.Ertp tadqiqotlarida ko'rish stimuli yuzaga keltirgan latent davri (aqliy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, latent davri shunchalik qisqa) va sinaluvchilarning aqliy darajasi o'rtasida bog'liqlik aniqlangan.

Xuddi shu kabi natijalar D.Xendrikson tadqiqotlarida eshitish stimullaridan foydalanilganda olingan: bundan tashqari, kutilmagan stimulgacha kelgan amplitudaning intellekt rivojlanish darajasi bilan ijobiy bog'liqligi mavjud ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, Ayzenk shuni tan olishga majburki, boshqa tadqiqotlarda (E.Beks, R.Dastmen, R.Injel, L.Roudes, N.Xenderson va boshqalar) o'zgacha natijalar olinganki, ayrimlari yuqoridagilarga butunlay qarama-qarshidir. Biroq u yoki bu natijalarni eksperimental tadqiqotlarning engil-elpi o'tkazilganligi natijasi deb tahlil qilgan holda tashlab yuboradi.

**3.3. Aqliy rivojlanish darajasining aniqlashning hozirgi zamon metodlari.** Aqliy rivojlanish darajasi va yuzaga kelgan potensial tasdiqlovchi, hamda bu bog'liqlikni neyron mexanizmlari darajasida tushuntiruvchi 3 ta konsepsiya diqqatni jalb qiladi. E.Shafer konsepsiyasi, M, quyidagilardan iboratdir:

Atrof-muxit stimuliga “javob” berishda ko'p bo'lmagan neyronlar harakatga keladiki, bunda stimul tanish bo'lsa, aksariyat neyronlar harakatga keladi. Shunday qilib, “adaptasiyaga yuqori neyronli qobiliyatli” individ (va bundan, yuqori intellektga ega) kutilgan stimulgacha yuzaga kelgan potensialning nisbatan kam amplitudasi va kutilmagan stimulgacha yuzaga kelgan potensialning odatdagidek amplitudasini beradi.

Psixologik-pedagogik diagnostikaning o'ziga xos, xususiy metodlari hozirgi bosqichda unchalik shakllanmagan. Buning asosiy sababi pedagog-diaagnost, o'zining amaliy psixologik diagnostik faoliyatida shu vaqtgacha psixologiyada ko'llanib kelayotgan psixodiagnostik metodlardan va pedagogikaning tadqiqot va o'quvchilarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi. Ijtimoiy muxit, ijtimoiy omillarni o'rganishda esa sosiologiyada, iqtisodiyotda mavjud bir qancha metodlardan foydalanish mumkin. Keyingi yillarda psixologik-pedagogik diagnostik foydalanishi mumkin bo'lgan metod va metodikalar soni ko'paymoqda, shu bilan birga uning o'ziga xos maxsus metodlari ham shakllanmoqda. Bunga misol qilib “Psixologik-pedagogik konsilium” metodikasini keltirish mumkin (bu metodikani hozirgi vaqtgacha metodikada qo'llanilib kelayotgan pedagogik konsilium bilan adashtirmaslik lozim).

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz psixologik-pedagogik diagnostikaning metodlariga batafsil to'xtalib o'tmaymiz, faqat ularning ba'zilarining nomlarini ko'rsatib o'tish bilan cheklanamiz. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) turli reja, dastur, maqsad va mezonlarga ega bo'lgan kuzatish metodlari guruhi;
- 2) diagnostik suhbatlar;
- 3) diagnosik surovnomalar;
- 4) diagnostik intervyu;
- 5) barcha tipdagi anketalar;
- 6) turli psixodiagnostik testlar;
- 7) o'quv guruhining xususiyatlarini o'rganish metodlari;
- 8) pedagogik testlar, shu jumladan didaktik testlar;
- 9) o'quv hujjatlarini tahlil qilish, shu jumladan kontent-analiz metodi;
- 10) turli xildagi jamoatchilik fikrini o'rganishga mo'ljallangan metodlar va hokazo.

Hayotiy va pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, diagnostik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan pedagog, ba'zi hollarda amaliyotchi-psixolog ishni o'zida mavjud metodikalardan kelib chiqib, shu metodika yordamida tadqiqot, tekshirish o'tkazish, ma'lumot yig'ishdan boshlaydi. Keyin esa olingan natijalarni hayotga moslashtirishga harakat qilib, o'z ishining amaliy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilinadi. Bunda ish uslubining asosiy kamchiligi shundaki, ba'zida juda mukammal, o'ta ilmiy, amaliy asoslangan metodikalar aniq pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalariga mos kelmasligi, ulardan yiroqligi sababli kutilgan natija bermaydi. Pedagogning diagnostik faoliyatining samaradorligi, muvaffaqiyati tanlangan va qo'llanilgan metodikaning "noyobligi" bilan emas, balki bu metodikaning shu muhitga, shu davrda o'rganilayotgan aniq maqsadga, vazifaga mosligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham har qanday diagnostik faoliyat nimani yoki kimni, qaysi maqsadlarda o'rganish, olingan natijalardan qanday foydalanishimizni anglashdan boshlanishi shart. Boshqacha qilib aytganda, pedagogning diagnostik faoliyati quyida ko'rsatilgan bosqichlarda, ketma-ket olib borilishi kerak.

#### **3.4. Pedagogik diagnostik faoliyatning bosqichlari.**

1. Diagnostik faoliyat ob'ekti, maqsadi va vazifalarini aniqlash.
2. Diagnostika ob'ektini o'rganishning mezonlari va ko'rsatgichlari (indikatorlari)ni belgilash.
3. Diagnostik faoliyat vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan metodikalar tanlash.
4. Tanlangan metodikalar yordamida informasiyalar yig'ish (tadqiqot o'tkazish).
5. Olingan natijalarni sifat va miqdor jihatdan qayta ishlash.

6. Pedagogik diagnoz ishlab chiqish va xulosalar chiqarish.
7. Pedagog prognoz ishlab chiqish.
8. Tuzatish va yordam berish yo'llari, usullari va rejasini yaratish.

Psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik jarayonning barcha sohalarida qo'llaniladi uning tarmoqlari, sohalar, qo'llash metodlari turli-tumandir. Shu sababli kichik hajmdagi qo'llanmada uning barcha tomonlarini qamrab olishning imkoni yo'qligini hisobga olgan holda biz psixologik-pedagogik diagnostikaning masalalaridan biri, o'quvchilarning mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

### **Nazorat savollari:**

1. XIX-XX asrlarda psixodiagnostika fanining rivojlanishi?
2. Gelton, Kettell va Binelnarining psixodiagnostikaga qo'shgan hissalar.
3. "Aql yoshi" va "Xronologik yosh" bir-biridan qanday farqlanadi.
4. Faktorli analiz intellektual faoliyatning yangi tomonlarini o'rganishdagi rolini ayting.
5. Terstoun ilgari surgan etti faktorga nimalar kiradi.
6. Aqliy rivojlanish darajasining aniqlashning hozirgi zamon metodlarni sharqlang?
7. Pedagogik diagnostik faoliyatning bosqichlariga nimalarni kiritish mumkin?

### **4-Mavzu: MEHNAT MALAKALARI VA KO'NIKMALARINI O'RGANISH MASALALARI**

#### **Reja:**

- 4.1. O'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini va ular orasidagi bog'liliklari
- 4.2. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasini aniqlash.
- 4.3. Ortiqcha tushunchani topish va tushunchalarni taqqoslash va hokazo metodlar

**Tayanch iboralar:** Test, psixologik testlar, aql, intellekt, faoliyat, metodlar

**Adabiyotlar:** 3,4,6,9,10

**4.1. O'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini va ular orasidagi bog'liliklari.** Ko'p yillik kuzatishlar va pedagogik tajribalar, ilmiy adabiyotlar taxlili shuni

ko'rsatadiki, o'quvchining aqliy rivojlanish darajasini pastligi yoki ularda ma'lum o'quv malakalarning rivojlanmaganligi, past o'zlashtirishga, o'quvchining kasbga, ilmga qiziqishining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun o'quvchining intellektual rivojlanish darajasini, ularda mavjud o'quv malakalarini o'rganish, kamchiliklarni tuzatish, maxsus o'quv va mehnat malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi vaqtda pedagoglar va pedagogik psixologiya mutaxassislari oldida ikkita o'zaro uzviy bog'liq muammo-o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini, ular orasidagi bog'lilik o'rganish dolzarb bo'lib turibdi.

Agar o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini alohida o'quv fanlari bo'yicha o'quv materialini asosida tuzilgan metodika yordamida aniqlansa, uning faqat shu o'quv predmeti (fizika, geometriya, chet tili) bo'yicha ta'lim olishga bo'lgan qobiliyati aniqlanadi. Masalan vazifalarning barchasi matematika fanidan tuzilsa, o'quvchining matematika fanidan qanday bilimga egaligini, ehtimol unda qanchalik shu fanni o'zlashtirishga imkoniyat va bilim borligini ko'rish mumkin. Bunday metodikalarning qo'llanilish sohalari, chegaralari va qo'llanilish muddatlari cheklangan. Diagnostikaning asosiy vazifasi faqatgina bir fandan emas, balki bir qancha fanlardan o'zlashtirishini, yomon o'zlashtirish sabablarini (agar shunday hol ro'y bergan bo'lsa) topishdangina iborat emas. Pedagog uchun o'quvchining haqqoniy o'quv imkoniyatlarining barcha qirralarini iloji boricha to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi, har qanday sharoitda, qaysi predmetdan qanday mavzu o'tilganidan qat'iy nazar qo'llash mumkin bo'lgan metodikalar zarur.

Ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatni o'rganish metodlarida uchraydigan yana bir kamchiliklardan biri, ko'pchilik mavjud metodikalar o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini o'rganish uchun ularning barchasi bir xil darajadagi dastlabki, boshlang'ich bilim darajasiga ega bo'lishini taqozo qiladi.

Ammo hayotda barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin. Bu boradagi muammolarni echish bevosita bizning vazifamizga kirmasa ham ularga bir oz to'xtalib o'tish lozim.

Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

**4.2. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasini aniqlash.** Avvalombor shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiylarni ajrata

olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi, texnik vazifalarni echa olishi (texnik tafakkur) kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. Shu sababli pedagoglar o'quvchining o'rganayotgan kasbi, qaysi o'quv predmetining muhimligidan kelib chiqqan holda uni baholashlari osonroq bo'ladi. Masalan, o'quvchining texnik tafakkurini baholashda uning tafakkurining obrazli komponentlari, predmet va vazifalarni fazoda idrok qila olishi, turli chizma, grafiklarni, sxemalarni tasavvurda tiklashi va real hayotda qanday ko'rinishga, qanday ishlashini tushunishi ko'p ahamiyatga egaligigiga e'tibor berish kerak. Texnik tafakkurning asosiy komponentlari tushunchalar, obrazlar, obrazli-harakatli va abstrakt (mavxum) tafakkurdir. Boshqacha qilib aytganda, pedagog o'quvchining o'quv malakalarni o'rganishda o'z faninig xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim. Shu bilan birga ular psixologiya fanida qo'llanilib kelayotgan oddiy, ammo samarali metodlardan foydalanishlari juda yuqori natija beradi. Quyida shundan metodikalardan bir guruhiga to'xtalib o'tamiz.

O'quvchining o'quv va mehnat ko'nikmalari o'z ichiga uning o'z ishini rejalashtira olishi, o'z faoliyatini o'zi nazorat qila olishi, faoliyat sur'atini boshqara olishini oladi.

O'quvchining aqliy rivojlanish darajasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- a) tafakkur jarayonlarining rivojlanganlik darajasi;
- b) tafakkur texnik faoliyatida yuzaga chiqadigan maxsus xususiyatlari;
- v) o'z faoliyatini rejalashtirishi va boshqara olishi;
- g) texnik vazifalarni echishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi, mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish uchun, qo'llash mumkin bo'lgan oddiy metodikalarga quyidagilar kiradi:

### **4.3. Ortiqcha tushunchani topish va tushunchalarni taqqoslash va hokazo metodlar.**

#### **ORTIQCHA PREDMETNI TOPISH ( VA OLIB TASHLASH).**

Bu metodika o'quvchini tafakkurini analitik-sintetik xususiyatlarini, tahlil qilinayotgan materialni umumlashtira olish malakasining mavjudlik darajasini o'rganishga mo'ljallangan. Metodikani o'rganish uchun maxsus ravishda tuzilgan rasmlar majmuasidan foydalaniladi. Rasmlar majmuasini pedagogning o'zi ham o'z predmetiga moslab tayyorlashi mumkin. Rasmda to'rtga predmet (masalan, soat, torozi, ko'zoynak, termometr) aks ettirilgan. Tekshiriluvchining vazifasi aks ettirilgan predmetlarning eng muhim belgilarini topish va shuning asosida "ortiqcha", boshqalarga mos kelmaydigan predmetni topish, qolgan uch

predmetga esa umumiy nom berishdan iborat. Bizning misolimizda “ortiqcha” predmet-ko'z oynak. Qolganlari esa o'lchash asboblari.

### **ORTIQCHA TUSHUNCHANI TOPISH.**

Bu metodika yuqorida qo'rsatilgan metodikaning verbal (so'zlar yordamida ifodalanadigan) varianti bo'lib o'quvchining mavhum va so'z-mantiq tafakkurini, abstrakt materiallarni umumlashtira olish malakasini o'rganishda qo'llaniladi. O'quvchiga bir qancha so'zlar majmuasi beriladi. So'zlar abstrakt so'zlar bo'lishi mumkin. Masalan: oliyjanoblik, to'g'riso'zlik, kamtarlik, ko'rolmaslik, botirlik. Shuningdek, vazifa narsa va hodisalarning nomlaridan iborat bo'lishi ham mumkin (soat, barometr, samolyot, termometr, sekundomer). Pedagogning o'zi ham o'z predmetiga oid so'zlardan vazifalar tuzishi mumkin. Bu holda fanga oid terminlar, fanda uchraydigan eng muhim predmet, detallarning nomidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tekshiriluvchining vazifasi berilgan beshta so'zlar orasidan boshqalarga to'g'ri kelmaydigan “ortiqcha” so'zni topish, qolgan so'zlarga umumiy nom berishdan iborat. Vazifani to'g'ri bajarish uchun o'quvchi berilgan tushunchalarning eng muhim va umumiy belgilarini topishi, shu belgilar asosida ularni umumlashtirishi va ularga umumiy nom berishi lozim. Shundan keyingina o'quvchi ajratilgan (topilgan) muhim belgiga ega bo'lmagan, ya'ni “ortiqcha” so'zni topadi.

#### **Ortiqcha tushunchalarni topish bo'yicha misollar va uning bayoni.**

Sizga beshta so'z berilgan. Ularning to'rtasi umumiy belgilari bilan birlashgan. Beshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagini chizish kerak. Faqat bitta so'z ortiq bo'lishi mumkin xolos.

Misol.

A) tarelka, b) piyola, v) stol, g) kastyulka, d) choynak.

Uchinchi so'z esa mebelni bildiradi, shuning uchun tagiga chiziladi.

Keyingi misol.

A) yurmoq, b) saqramoq, v) o'ynash, g) o'tirish, d) yugurish.

To'rtta so'z xarakatni bildiradi. “o'tirish” esa tinchlik holatini bildirgani uchun tagi chiziladi.

Topshiriqlar to'plami:

1. a) old qo'shimcha, b) predlog, v) suffiks, g) qo'shimcha, d) ildiz.
2. a) to'g'ri chiziq, b) romb, v) to'g'ri burchak, g) kvadrat, d) uchburchak.
3. a) barometr, b) flyuger, v) termometr, g) kompas, d) azimut.
4. a) quldor, b) qul, v) dehqon, g) ishchi, d) kosib.
5. a) maqol, b) she'r, v) poema, g) hikoya, d) povest.
6. a) sitoplazma, b) ovqat, v) o'sish, g) ta'sirlanish, d) ko'payish.
7. a) yomg'ir, b) qor, v), qirov, g) do'l.
8. a) uchburchak, b) bo'lak, v) uzunlik, g) kvadrat, d) aylana.
9. a) peyzaj, b) mozaika, v) but (ikona), g) freska (devorga solingan rasm), d) mo'yqalam.
10. a) ocherk, b) roman, v) hikoya, g) syujet, d) povest.

11. a) paralel, b) karta, v) meridian, g) ekvator, d) qutb.  
 12. a) adabiyot, b) fan, v) rassomlik, g) me'morchilik, d) badiiy xunarmandchilik.  
 13. a) uzunlik, b) metr, v) vazn, g) hajm, d) tezlik.  
 14. a) karbanad angidrid gazi, b) yorug'lik, v) suv, g) kraxmal, d) xlorofil.  
 15. a) kirish, b) kulminasiya, v) informasiya, g) yakun, d) xotima.  
 16. a) tezlik, b) tebranish, v) kuch, g) og'irlik, d) zichlik.  
 17. a) Kuba, b) Yaponiya, v) Vetnam, g) Buyuk Britaniya, d) Islandiya.  
 18. a) tovar, b) shahar, v) yarmarka, g) natural xo'jalik, d) pul.  
 19. a) tasvir, b) taqqoslash, v) xarakteristika, g) ertak, d) kesatish.  
 20. a) aorta, b) vena, v) yurak, g) arteriya, d) kapillyar.

### Topshiriqlar to'plamining kaliti.

<b>1-b</b>	<b>5-a</b>	<b>9-d</b>	<b>13-b</b>	<b>17-v</b>
<b>2-v</b>	<b>6-a</b>	<b>10-g</b>	<b>14-g</b>	<b>18-g</b>
<b>3-d</b>	<b>7-v</b>	<b>11-b</b>	<b>15-v</b>	<b>19-g</b>
<b>4-a</b>	<b>8-v</b>	<b>12-b</b>	<b>16-b</b>	<b>20-v</b>

O'quvchining o'quv materialini yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi tafakkurning taqqoslash jarayonining rivojlanganligiga ham bog'liq Uy vazifalarini mustaqil ravishda muvaffaqiyatli bajarilishida analiz, umumlashtirishdan tashqari, tafakkurning taqqoslash jarayoni ham katta ahamiyatga ega. Taqqoslash predmet va narsalar orasidagi o'xshashliklar va farqlarni topishni taqozo qiladi. Shu sababli pedagog o'quvchida taqqoslash jarayonining qanchalik darajada rivojlanganligini o'rganishi lozim. Buning uchun quyidagi oddiy metodikalardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

#### **TUSHUNCHALARNI TAQQOSLASH**

Bu metodika o'quvchidagi elementlar fikrlash ko'nikmasining mavjudligini aniqlash imkonini beradigan sodda metodikalar. Metodika taqqoslash orqali berilayotgan so'zlardagi o'xshashlik va fikrlarni aniqlashga yo'naltirilgan. O'quvchiga bir qancha taqqoslash imkoniyati bor so'zlar beriladi. So'zlar majmuasining orasida taqqoslash mumkin bo'lmagan, ya'ni umumiy belgiga ega bo'lmaganlari ham qo'shiladi. Masalan: “ko'l-daryo”, “daraxt-yog'och”, “ruchka-qalam”, “qayiq-ko'prik”, “temir-sut”. O'quvchining vazifasi berilgan so'zlarning umumiy, o'xshash tomonlarini va ular nimasi bilan bir-biridan farq qilishini ko'rsatish.

1.Topshiriq bo'yicha misollar va uning bayoni. Topshiriqlar savol xarakteridagi gaplardan iborat. Ularning har birida bittadan so'z etishmaydi. Siz



tavsiya etilgan bosh so'zdan berilgan gapga mos keladiganning tagini tizishingiz kerak. Faqat bitta so'zning tagiga chiziladi.

Misol.

Mazmun jihatdan “biografiya” so'zi bilan qaysi so'z bir xil?

a) tasodif, b) qahramonlik, v) tarjimai hol, g) kitob, d) yozuvchi.

Bu erda “tarjimai hol” so'zi to'g'ri hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tagiga chiziladi.

Yana misol.

“salbiy” so'ziga qaysi so'z teskari (zid) ?

a) muvaffaqatsiz, b) baholi, v) muhim, g) tasodifiy, d) ijobiy.

Bu o'rinda to'g'ri javob “ijobiy” so'zi bulgani uchun, uni tagiga chiziladi.

1 “a” topshiriqlar to'plami?

1. Ism va sharifning bosh harflari nima deyiladi?

a) to'g'ri, b) inisial, v) dasxat, g) indeks, d) anagramma.

2. Insonparvar degani bu:

a) jamoatchi, b) odamiy, v) yuksak kasbli, g) tajovuzkorlik, d) kalondimog'lik.

3. Tabiyat va jamiyat haqidagi qarashlar tizimi nima deyiladi?

a) orzu, b) baholash, v) dunyoqarash, g) saviya, d) illyuziya (aldanish)

4. Mazmun jihatdan “demokratiya” so'zi bilan qaysi so'z bir xil.

a) bosh-boshdoqlik, b) yakka hokimiyatchilik, v) xalq hokimiyati, g) sulola, d) sinflar.

5. Eng yaxshi hayvon zoti va o'simliklar navini yaratadigan fan nima deyiladi?

a) bionika, b) ximiya, v) seleksiya, g) batanika, d) fiziologiya.

6. Kitob, ma'ruza, nutqning qisqacha bayon etish, yozib olish nima deyiladi?

a) abzas, b) sitata, v) rugin, g) parcha, d) konspekt.

7. O'qimishli, chuqur va keng bilimlik nima deyiladi?

a) ziyolilik, b) tajribalilik, v) bilimdonlik, g) talantlilik, d) o'zini aqilli hisoblash.

8. Borliqqa qiziqishning yo'qligi unga aralashmaslik nima deyiladi?

a) mulohazakorlik, b) sustlik, v) kiborlik, g) zidlik, d) shavqatsizlik.

9. Inson hayoti va faoliyatining biron-bir sohasiga taaluqli qonunlar majmuasi nima deyiladi?

a) revalyusiya, b) qaror, v) tradisiya, g) kodeks, d) loyixa.

10. “Ikkiyuzlamachi” tushunchasiga qarama qarshi bo'lgan so'z bu:

a) samimiylik, b) zid, v) soxta, g) xushmuomala, d) qat'iyatli.

11. Agar bahs bir-biriga yon berish bilan tugasa, uni nima deyiladi?

a) kompromiss, b) muloqat, v) birlashish, g) muzokara, d) zid fikr.

12. Ijtimoiy ongda ruhiy hodisani aks etilishi nima?

- a) psixika, b) axloq, v) tabiat, g) jamiyat, d) san'at.
13. “Birday” tushunchasiga qaysi so'z teskari?  
a) bir xil, b) yagona, v) salobatli, g) har xil, d) ajratilgan.
14. Qaramlikdan, hurofotdan qutilish, huquqqa tenglashish nima deyiladi?  
a) qonun, b) muxojirlik, v) maslik, g) harakat, d) ozodlik.
15. “Oppozisiya” degani:  
a) qarshi harakat, b) kelishish, v) faqr, g) siyosat, d) qaror.
16. “Sivilizasiya” degani bu:  
a) farmasiya, b) ibtidoiy, v) ishlab chiqarish, g) madaniyat, d) muloqat.
17. Mazmun jihatdan etakchilik so'zi bilan qaysi so'z bir xil?  
a) ixtiro qilish, b) g'oya, v) tanlash, g) birinchilik, d) rahbarlik.
18. Koalisiya degani bu:  
a) raqobat, b) siyosat, v) dushmanlik, g) munosabatni uzish, d) birlashish.
19. Mazmun jihatdan “alturizm” so'zi (boshqalarga g'amxo'rlik ko'rsatuvchi kishi)  
a) insonparvarlik, b) o'zaro aloqa, v) xushmuomalalik, g) xudbinlik, d) odoblilik.
20. Taraqqiyotga ishonchsizlilik bilan qaraydigan odam nima deyiladi?  
a) demokratik, b) radikal, v) konservativ, g) liberal, d) anarxist.

### 1-topshiriqlar to'plamining kaliti.

<b>1-b</b>	<b>6-d</b>	<b>11-a</b>	<b>16-g</b>
<b>2-b</b>	<b>7-v</b>	<b>12-b</b>	<b>17-d</b>
<b>3-v</b>	<b>8-b</b>	<b>13-g</b>	<b>18-d</b>
<b>4-v</b>	<b>9-g</b>	<b>14-d</b>	<b>19-a</b>
<b>5-v</b>	<b>10-a</b>	<b>15-a</b>	<b>20-v</b>

### 2-topshiriq misollar va uning bayoni

Blankaning chap tomonida turgan so'zga tavsiya etilgan to'rtta so'zdan mazmun jihatdan mos keladiganini, ya'ni sinonim so'zini toping. Uni tagini chizishingiz kerak. Faqat bitta so'zni tanlash mumkin.

### Misol.

Asr-- a) tarix, b) yuz yillik, v) voqea, g) jrayon.

To'g'ri javob “yuz yillik”. Shuning uchun uni tagi chiziladi.

## Yana misol.

Oldindan aytish - topshiriqlar to'plami.

1. Progressiv-a) zukko, b) ilg'or, v) chaqqon, g) qoniqtirish.
2. Anulerivanie-a) imzolash, b) bekor qilish, v) xabar, (annulyasiya) g) kechiktirish.
3. Ideal-a) fantaziya, b) kelajak, v) donolik, g) mukammallik.
4. Argument-a) dalil, b) kelishib olish, v) baxs, g) jumla.
5. Mif-a) ibtido, b) ijod, v) rivoyat, g) fan.
6. Amoral-a) barqaror, b) murakkab, v) yoqimsiz, g) axloqsiz.
7. Analiz-a) faktlar, b) taxlil, v) tashqid, g) maxorat.
8. Etalon-a) nusxa, b) shakl, v) asos, g) namuna.
9. Sferik-a) uzunchoq, b) sharga o'xshash, v) bo'm-bo'sh, g) hajmiy.
10. Sosial-a) yoqimli, b) ozod, v) rejalashtirilgan, g) ijtimoiy.
11. Gravitasiya-a) tortish, b) itarish, v) vaznsizlik, g) ko'tarish.
12. Sentimental-a) shoirona, b) ta'sirchan, v) quvnoqlik, g) g'alati.
13. Eksport-a) sotish, b) tovarlar, v) chetga chiqarish, v) savdo.
14. Effektivno'y-a) zarur, b) ta'sirli, v) qat'iyatli, g) o'tkir.
15. Odob-a) etika, b) taraqqiyot, v) qobiliyat, g) huquq.
16. Modifikasiyalash-a) ishlash, b) kuzatish, v) o'rganish, g) o'zgartirish.
17. Radikal-a) tabdan, b) javoban, v) oxiri, g) qoloq.
18. Negativ-a) muvaffaqiyatsiz, b) yolg'on, v) salbiy, g) extiyotsiz.
19. Sub'ektiv-a) amaliy, b) iqtisodiy, v) shaxsiy, g) yashirin.
20. Agrar-a) mahalliy, b) xo'jalik, v) shaxsiy, g) dehqonlarga oid.

## 2- topshiriqlar to'plamining kaliti.

<b>1-b</b>	<b>6-g</b>	<b>11-a</b>	<b>16-g</b>
<b>2-b</b>	<b>7-b</b>	<b>12-b</b>	<b>17-a</b>
<b>3-g</b>	<b>8-g</b>	<b>13-v</b>	<b>18-v</b>
<b>4-v</b>	<b>9-b</b>	<b>14-b</b>	<b>19-v</b>
<b>5-v</b>	<b>10-g</b>	<b>15-g</b>	<b>20-v</b>

## 3- topshiriqlar bo'yicha misollar va uning bayoni.

Sizga uchta so'z tavsiya etiladi. Birinchi va ikkinchi so'z o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Uchinchi so'z bilan tavsiya etilayotgan besh so'zning

bittasida ham xuddi shunday bog'lanish mavjud. Ana shu so'zning tagini chizishingiz kerak.

Misol.

Qo'shiq:- kompozitor-samolyot.

a) aeroport, b) uchish, v) konstruktor, g) yoqilg'i, d) istemolchi.

To'g'ri javob “konstruktor” so'zi. Shuning uchun shu so'zning tagiga chiziladi.

Keyingi misol.

Yaxshilik: yomonlik-kun?

a) quyosh, b) tun, v) xafta, g) chorshanba, d) kecha-kunduz.

Bu erda to'g'ri javob “tun” bo'lib, shu bois uning tagi chiziladi.

3 “a”- topshiriqlar to'plami.

1. Fe'l: tuzlamoq - ot?

a) o'zgartirmoq, b) yaratmoq, v) qo'llanmoq, g) turlamoq, d) yozmoq.

2. Sovuq: issiq-xarakat?

a) inersiya, b) osoyishtalik, v) molekula, g) xavo, d) o'zaro ta'sir.

3. Kolumb: sayoxat-zilzila?

a) kashshov, b) tog'larni xosil bo'lishi, v) vulkanning otilishi, g) qurbonlar, d) tabiiy xodisa.

4. Qo'shiluvchi: yig'indi-ko'paytiruvchilar?

a) farqi, b) bo'luvchi, v) ko'paytma, g) raqam.

5. Qoldiqlar: burjuaziya-qullar?

a) quldorlar tizimi, b) burjuaziya, v) quldorlar, g) yollanma ishlar, d) asirlar.

6. Qirqquloq: sporalar (kulsiz o'simliklarning urchish organi) qarag'ay?

a) shishka, b) tupgul, v) o'simlik, g) urug', d) qoraqarag'ay.

7. She'r: poeziya-hikoya?

a) kitob, b) yozuvchi, v) qissa, g) gap, d) proza.

8. Tog'lar: cho'qqi-iqlim?

a) relief, b) temperatura, v) tabiat, g) geografiya, d) tenglik e) o'simliklar.

9. O'simlik: poya-xujayra?

a) yadro, b) xromosoma, v) oqsil, g) faerman, d) bo'linish,

10. Boylik: kambag'al-krepastry qaramlik?

a) krepastry dehqonlar, b) shaxsiy erkinlik, v) tengsizlik, g) xususiy mulk, d) feodal tizim.

11. Start: finish-muqaddima?

a) sarlavha, b) kirish, v) kulminasiya, g) harakat, d) xotima.

12. Chaqmoq: yorug'lik-tortishish xodisasi?

- a) tosh, b) harakat, v) og'irlik kuchi, g) og'irlik, d) er.
13. Iptidoiy jamoa tuzumi: quldorlik tizimi?  
a) sosializm, b) kapitalizm, v) quldorlik, g) davlat, d) feodalizm.
14. Roman: bo'lim-she'r?  
a) poema, b) qofiya, v) band, g) ritm, d) janr.
15. Issiqlik: tirik organizm faoliyati-kislorod?  
a) gaz, b) suv, v) o'simlik, g) taraqqiyot, d) nafas olish.
16. Figura: uchburchak-moddalar holati?  
a) suyuqlik, b) harakat, v) temperatura, g) suv, d) molekula.
17. Atirgul: gul-kapitalistlar?  
a) ekspluatasiya, b) ishchilar, v) kapitalizm, g) sinf, d) fabrika.
18. Atmosfera bosimining kamayishi: yog'ingarchilik-antisiklon?  
a) ochiq, b) siklon, v) iqlim, g) namgarchilik, d) hizmat.
19. To'g'ri burchak: tekislik!-kub?  
a) bo'shliq, b) qirra, v) balandlik, g) uchburchak, d) tomonlar.
20. Urush: o'lim-xususiy mulk?  
a) feodallar, b) kapitalizm, v) tadbirkorlik, g) qullar, d) krepastnoy dehqonlar.
21. Son: miqdor-fe'l?  
a) yurmoq, b) harakat, v) sifatdosh, g) nutq bo'lagi, d) tushlamoq.
22. Shimol: janub yog'ingarchilik?  
a) sahro, b) qutb, v) yomg'ir, g) qurg'oqchilik, d) iqlim.
23. Diametr: radius-doira?  
a) yoy, b) segment, v) bo'lak, g) chiziq, d) aylana.
24. Epiteliy: (organizm sirtidan qoplab turuvchi to'qima):-sorta?  
a) yurak, b) ichki organ, v) arteriya, g) vena, d) qon.
25. Bolg'a: qoqish-generator?  
a) bog'lanish, b) ishlab chiqarish, v) ulamoq, g) o'zgartiramoq, d) isitish.

### 3 “a”-topshiriqlar to'plamining kaliti.

<b>1-g</b>	<b>6-g</b>	<b>11-d</b>	<b>16-a</b>	<b>21-b</b>
<b>2-b</b>	<b>7-d</b>	<b>12-v</b>	<b>17-g</b>	<b>22-g</b>
<b>3-d</b>	<b>8-b</b>	<b>13-d</b>	<b>18-a</b>	<b>23-a</b>
<b>4-v</b>	<b>9-a</b>	<b>14-v</b>	<b>19-a</b>	<b>24-v</b>
<b>5-d</b>	<b>10-b</b>	<b>15-d</b>	<b>20-v</b>	<b>25-b</b>

## 5-topshiriq bo'yicha misollar va uning bayoni

Sizga ikkita so'z tavsiya etiladi. Ular o'rtasida qanday umumiylik borligini aniqlash kerak. Har bir misolda umumiy so'zlarning eng muhim umumiy belgilarini topishga harakat qiling. Berilgan juft so'zlarning yoniga o'zingizning javobingizni yozing.

### **Misol.**

Qoraqarag'ay-qarag'ay.

To'g'ri javob “ignabargli daraxtlar” bo'ladi. Shu so'zni berilgan juft so'zlar yoniga yozish kerak.

### **Keyingi misol.**

Yomg'ir-do'l.

To'g'ri javob “yog'ingarchilik bo'ladi.” Shu so'zni yozish kerak.

## **5”a”-topshiriqlar to'plami**

- 1.Osiyo-Afrika.
- 2.Botanika-Zoologiya.
- 3.Feodalizm-Kapitalizm.
- 4.Ertak-Doston.
- 5.Gaz-suyuqlik.
- 6.Yurak-arteriya.
- 7.Kopengagen-Magapura.
- 8.Atom-molekula.
- 9.Yog'lar-oqsillar.
- 10.Fan-san'at.
- 11.Barqarorlik-mardlik.
- 12.Amper-volt.
- 13.Kanal-suv ambori.
- 14.Mazaika-(but) Ikona.
- 15.Bulutli-yog'ingarchilik.
- 16.Yig'indi-asar.
- 17.Kesatik-ta'rif.
- 18.Klassisizm-realizm.
- 19.Sunami-bo'ron.

## **5”a”-topshiriqlar to'plamining kaliti**

- 1.Osiyo-Afrika, qit'a.
- 2.Botanika-Zoologiya. Trik tabiat haqidagi fan , biologiya.
- 3.Feodalizm-Kapitalizm, tuzum.

4. Ertak-doston. Halq og'zaki ijodi, adabiyotshunoslik.
5. Gaz-suyuqlik, modda.
6. Yurak-arteriya. Qon aylanish organlari.
7. Kopenhagen-Magapura. poytaxtlar.
8. Atom-malekula, zarra.
9. Yog'lar-oqsillar. Organik moddalar.
10. Fan-san'at. madaniyat.
11. Barqarorlik-mardlik. Xususiyat.
12. Amper-Volt. elektr o'lchami.
13. Kanal-suv ombori. Suv havzasi
14. Mozaika-ikona. Tasviriy san'at.
15. Bulutli yog'ingarchilik. iqlim.
16. Yig'indi-asar (proizvedenie) matematik faoliyat natijasi.
17. Kesatik-ta'rif taqqoslash (leteraturnoe priemi)
18. Klassisizm-realizm. davr.
19. Sunami-bo'ron. tabiiy ofatlar.

### **6-topshiriqlar bo'yicha misollar va uning bayoni**

Sizga ma'lum qoidalarga ko'ra tartib bilan berilgan qator raqamlarni tavsiya qilamiz. Sizning vazifangiz, mazkur qatorining davomi bo'ladigan raqamni aniqlab, uni yozishingiz kerak. Ayrim topshiriqlardagi yozilish tartib qoidasini topishingiz uchun ko'paytirish, bo'lish va boshqa amallardan foydalanishingizga to'g'ri keladi.

Misol

2, 4, 6, 8, 10 . . .

Bu qatordagi har bir raqam oldingisidan 2 ta ortiq. Shuning uchun keyingi raqam 12 bo'ladi. Uni yozish kerak.

Keyingi misol

9, 7, 10, 8, 11, 9, 12 . . .

bu qatorda navbati bilan ikki ayrilib, 3 qo'shiladi. Keyingi raqam 10 bo'lishi kerak. Uni yozishingiz zarur.

### **6 “a”-topshiriqlar to'plami**

1 ! 6	9	12	15	18	21
2 ! 9	1	7	1	5	1
3 ! 2	3	5	6	8	9
4 ! 10	12	9	11	8	10
5 ! 1	3	6	8	16	18
6 ! 3	4	6	9	13	18

7 ! 15	13	16	12	17	11
8 ! 1	2	4	8	16	32
9 ! 11	2	5	10	17	26
10 ! 1	4	9	16	25	36
11 ! 1	2	6	15	31	56
12 ! 31	24	18	13	9	6
13 ! 17	171	57	54	18	15
14 ! 54	19	18	14	6	9
15 ! 301	294	49	44	11	8

### 6”a”-topshiriqlar to'plamining kaliti

- bunda sonlar ketma ketlikda har bir son boshlang'ich songa 3 sonini qo'shish bilan ortib boradi
- 1 ! 24
- 2 ! 3 -bu ketma-ketlikda boshlang'ich sondan undan oldingi juft sonini ayrib va bu juft songa oldingi juft son qo'shiladi.
- 3 ! 11 -bu sonlar ketma-ketligida songa avval 1 qo'shiladi, keyin hosil bo'lgan songa 2 qo'shiladi.
- 4 ! 7 -bu ketma-ketlikda avval 2 soni qo'shiladi va hosil bo'lgan sondan 3 soni ayriladi.
- 5 ! 36 -bu sonlar ketma - ketligida avval boshlang'ich songa 2 qo'shiladi va chiqqan natijaga 2 ko'paytiriladi.
- 6 ! 24 -bu sonlar ketma-ketligida boshlang'ich sondan boshlab, avval 1, keyin 2 va hokazo ketma-ketlikda sonlar qo'shiladi.
- 7 ! 18 -bu sonlar ketma-ketlikda juft sonlar ketma-ketligi ayrilib toq sonlar qo'shilib boradi.
- 8 ! 64 -bu sonlar ketma-ketligida har bir son 2 ga ko'paytirilib bormoqda.
- 9 ! 37 -bu sonlar ketma-ketligida har bir songa keyingi toq son navbatma-navbat qo'shilib bormoqda.
- 10 ! 49 -Avval 3. Keyin 5, 7, 9 . . . toq sonlar navbatma-navbat qo'shiladi.
- 11 ! 92 -Avval 12 keyin 22 va 32 navbatma-navbat sonlarning kvadrati qo'shiladi.
- 12 ! 4 -bu sonlar ketma-ketligida avval 7 keyin 6, keyin 5, 4, 3, 2, 1 sonlari ketma-ket ayrilib bormoqda.
- 13 ! 5 -Avval 3 soni ayrilib, chiqqan natija 3 ga bo'linadi va shunday davom etadi.
- 14 ! 2 -interpretasiya Sizga havola qilindi.
- 15 ! 4 -bu ketma-ketlikda 7 toq soni ayrilib 6 juft songa bo'linadi, keyin 5 ayrilib, keyin 4 ga bo'linadi.

O'quvchining mantiqiy fikrlashi va taqqoslashini o'rganish uchun esa quyidagi “Murakkab analogiya” metodikasi qo'llaniladi.



### **Nazorat savollari:**

1. O'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini va ular orasidagi bog'liliklarni qanday o'rganiladi?
2. aqliy rivojlanish darajasini aniqlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
3. Tafakkurning analitik sintetik xususiyatlarini tahlil qilishda ortiqcha predmetni topish yoki olib tashlash metodi.
4. Ortiqcha tushunchani topish va tushunchalarni taqqoslash va xokazo metodlar.

## **5-Mavzu: MURAKKAB MANTIQUIY BOG'LANISHLAR VA MUNOSABATLAR**

### **Reja:**

- 5.1. Murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlash (Murakkab analogiya)
- 5.2. Oddiy analogiya
- 5.3. O'quvchining o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olishi

**Tayanch iboralar:** Murakkab analogiya, oddiy analogiya, metodika, yorug'lik, qorong'ulik, qo'rqish, qochish, dushman, raqib, faoliyat, metodlar.

**Adabiyotlar:** 2,5,6,8,11

**5.1. Murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlash (Murakkab analogiya).** Bu metodika narsalar va xodisalar orasidagi murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. Metodikada bir-biri bilan ma'lum munosabatda bo'lgan so'zlar juftligi qo'llaniladi. Masalan: “yorug'lik-qorong'ulik”, “qo'rqish-qochish”, “dushman-raqib” va hokazolar. Barcha vazifalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh-misol tariqasida juftliklar. Ikkinchi guruh esa-tekshiriluvchi baxolashi lozim bo'lgan juftliklardan iborat bo'lib, ular birinchi guruhdagi juftliklardagi munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Ish quyidagi tartibda olib boriladi:

Ish boshida eksperimentator (pedagog) o'quvchi bilan birgalikda birinchi guruhdagi juftliklar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qiladilar. Masalan;

“yorug'lik-qornog'ulik”- qarama-qarshi tushunchalar, “qo'rqish-qochish”-sabab oqibat bog'lanishiga ega, “dushman-raqib”-sinonimlar va h.k. Vazifa tushunarli bo'lgach, o'quvchiga ikkinchi guruh juftliklar beriladi. O'quvchi berilgan ikkinchi juftliklar birinchi guruhdagi juftliklarning qaysi biriga mos kelishini ko'rsatish va tushuntirishi lozim. Masalan: “issiq-sovuq“, “yaxshi-yomon”, “uzun-kalta” qarama-qarshilik xususiyatiga ega juftliklar bo'lib, “yorug'lik-qorong'ulik” juftligiga mos keladi, “dushman-raqib” juftligiga esa “juft-ikkita” kabilar kiradi. Agar tekshiriluvchi vazifalarni qiynalmay echa olsa, u narsa va xodisalar orasidagi murakkab bog'lanishlarni topa oladi.

**5.2. Oddiy analogiya.** Metodika oldindan berilgan (ko'rsatilgan) fikrlash usulidan foydalanib tushunchalar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni topishga yo'naltirilgan.

Metodika quyidagi toifadagi vazifalardan iborat bo'lishi mumkin:

elektr toki	bug'
sim	qozon, bug'lanish, suv, quvur, qaynash

Tekshiriluvchi chapda berilgan tushunchalar orasidagi bog'lanishni topishi va shu asosda o'ng tomonda, yuqori qatorda berilgan tushunchaga pastdan mos keladiganini topishi lozim.

Bizning misolimizda vazifaning to'g'ri echimi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi;

elektr toki	bug'
sim	quvur

Quyidagi metodikaning namunasini keltiramiz.

Tekshiriluvchiga ko'rsatma: Chap tomonda ikkita so'z berilgan -quloq va eshitmoq. Bu so'zlar orasida qanday bog'liklik bor. Eshitmoq - quloqning asosiy funksiyasi. Endi o'ng tomondagi qatorga qarang. Chiziqning ustida bitta so'z bor (tish), ostida esa beshta so'z berilgan. Sizning vazifangiz shu berilgan beshta so'zdan shundayini tanglanki, bu so'z “eshitmoq“ so'zi “quloq“ so'zi bilan qanday bog'lanishda bo'lsa “tish” so'zi bilan shunday bog'lanishda bo'lsin, ya'ni tishning asosiy funksiyasini ko'rsatsin. To'g'ri javob “chaynash”. Keyingi vazifalarni echishda ham xuddi shu tartibda chapda berilgan juftliklarni taxlil qiling va topilgan qonuniyat (bog'lanish) asosida o'ngda berilgan vazifalarning eching.

----- Vazifa -----	Javob	Tushuntirish
--------------------------	-------	--------------

<u>Quloq</u>	<u>Tish</u>	<u>Eshitmoq-quloq-</u> <u>ning asosiy fun-</u> <u>kсийasi, chaynash-</u> <u>tishning.</u>
eshitmoq	ko'rish, davolash, chaynash, og'rish, og'iz	
<u>Gazlama</u>	<u>Yog'och</u>	
qaychi	stol, o'simlik, arra, o'rmon, kesish	
<u>Ot</u>	<u>Sigir</u>	
toychoq	o'tloq, shoh, sut, buzoq, pishloq	
<u>Maktab</u>	<u>Kasalxona</u>	
o'qitish	doktor, o'quvchi, kasal, tashkilot, davolash	
<u>Ashula</u>	<u>Surat</u>	
kar	rassom, cho'loq, ko'r, rasm, go'zallik	
<u>O'simlik</u>	<u>Qush</u>	
urug'	don, bulbul, sayrash, tuxum, qanot	

Bu metodikaning asosiy xususiyatlaridan biri, u o'quvchi oldin egallagan bilimni amalda, o'quv jarayonida qo'llay olishini diagnostika qilish imkonini beradi. O'qish jarayonida ba'zi o'quvchilar bir xil turdagi echimga ega bo'lgan masalalarni yaxshi echa oladilar, ammo masalaning shartida, echimida biroz o'zgarish bo'lsa oldingi olgan bilim va echish usullarini yangisiga ko'chira olmaydilar va masalani echishda qiynaladilar. Pedagog o'quvchining tafakkuridagi bunday bir tomonlikni, streotip fikrlashini bilgan holda, turli vazifalar berishi, masala shartini, echish usullari o'zgartirib olgan bilimlardan turli sharoitlarda, turli toifadagi masalarni echishda foydalanishga o'rgatishi

lozim. Yuqorida berilgan metodikada tafakkur jarayoni (faoliyati) quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) o'quvchi chapda berilgan ikki tushuncha orasidagi mantiqiy bog'lanishni anglaydi;

2) o'ngda berilgan vazifani orttirilgan tajriba, ochilgan bog'lanish asosida tahlil qilish va shu mantiqiy bog'lanishga ega bo'lgan juftlikni ajratish;

3) tanlangan javobni isbot va dalillar bilan tushuntirish.

Oxirgi bosqich o'quvchi qanchalik vazifani tushunib echganini ko'rsatadi, bu jarayon tafakurini va nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **5.3. O'quvchining o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olishi**

O'quvchining o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olish malakasi quyidagi usul yordamida aniqlanadi:

Tekshiriluvchiga ma'lum so'zlar qatori beriladi, masalan:

SHAXAR (avtomobil, bino, odam, ko'cha, velosiped);

KUB (burchaklar, chizma, tomonlar, tosh, yog'och);

BO'LISH (sinf, bo'linuvchi, qalam, bo'luvchi, qog'oz);

O'YIN (o'yinchilar, jarima, qoida, jazo, o'yingoh).

O'quvchining vazifasi qavs ichida berilgan beshta so'zlardan qavs tashqarisidagi katta harflar bilan yozilgan tushunchaning eng muxim, ajralmas xususiyatini aks ettiruvchi ikkitasini topishdan iboratdir.

O'quvchilarning o'quv malakalarini o'rganish quyidagi usullardan foydalanib amalga oshirilishi mumkin:

a) "O'quv materialiga sarlavha qo'yish va asosiy ma'nosini qisqacha tushuntirib berish;

b) "Matnni o'rganib unga reja tuzish";

v) "Og'zaki javob rejasini yaratish";

g) "Aniq mehnat faoliyatini rejalashtirish".

Biz yuqorida to'xtalib o'tgan barcha metodikalar bir-birini to'ldiruvchi metodikalar bo'lib, ularni ketma-ket yoki almashtirgan holda qo'llab borilsa, ular bir vaqtning o'zida ham diagnostik instrument, hamda o'quvchining tafakkurini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlashga nimalar kiradi?
2. Oddiy analogiya nima?
3. Oddiy va murakkab analogiya metodida tafakkur jarayonining asosan qaysi bosqichlari amalga oshiriladi?

## **6-Mavzu: TA'LIM JARAYONINI PSIXODIAGNOSTIKA QILISHNING UMUMIY VAZIFALARI**

### **Reja:**

- 6.1. Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilishning asosiy vazifalari**
- 6.2. Pedagogik jarayon diagnostikasi**
- 6.3. Ta'lim jarayonining individual xususiyatlarining diagnostikasi**
- 6.4. Rivojlanishda orqada qolishning turli formalari diagnostikasi va ularning korreksiyasi**
- 6.5. O'quv jarayoni effektivligini psixodiagnostika qilish, psixodiagnostik tadqiq qilishga qo'yilgan talablar.**
- 6.6. Metodlarning sifatlilik kriteriyalarini aniqlash va ishonchliligini tekshirish**

**Tayanch iboralar: Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilish, Pedagogik jarayon diagnostikasi, O'quv jarayoni effektivligi, Psixodiagnostik tadqiq qilish, faoliyat, metodlar.**

**Adabiyotlar: 2,3,5,8,10,11**

**6.1. Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilishning asosiy vazifalari.** Maktab ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilish u erda ta'lim olayotgan bolalar va o'smirlarning rivojlanishi, bilim darajasi, aqliy qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va h.k.lar haqida ularning ijtimoiy normalarga mos kelish-kelmasligi haqida birmuncha to'laroq xulosalar chiqarishga va shu hulosalar yordamida yosh davrlar turli guruhlarning ta'lim va tarbiya jarayonini kerakli oqimga yo'naltirish imkonini beradi. Olingan psixologik ma'lumotlar pedagogik jarayonning samarali bo'lishiga olib keladi. Psixodiagnostik metodlarni qo'llash, ma'lumki, alohida psixologik tayyorgarlikni taqozo etadi. Lekin ba'zi hollarda ularni maxsus tayyorgarlikdan o'tgan pedagoglar tomonidan ham qo'llanishi mumkin. Psixologlar va pedagoglarning o'zaro hamkorligi maktab amaliyotidagi psixodiagnostik muammolarning tez va yuqori malakada tadqiq etilishiga imkon yaratadi.

Maktab pedagogik psixologik diagnostikasida quyidagi masalalarni asosiylari sifatida ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

a) bolalar va o'smirlar rivojlanishi, yo'nalishi va darajasini baholash, ularning o'quv dasturlarini o'zlashtirishlari va tarbiyasiga yo'nalgandir.

b) pedagog va psixologlarning maktabdagi psixodiagnostik faoliyatlari butunligicha pedagogik jarayonga yo'nalgan bo'lmog'i lozim va u jamiyatning har tomonlama rivojlangan a'zosini tarbiyalash va o'qitishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

v) psixolog va pedagoglarning birinchi vazifasi o'quvchilar rivojlanishining konstant darajasini tadqiq qilish bo'libgina qolmay, o'quvchilar yoki sinf jamoalari haqida turli psixologik ma'lumotlar olinmog'i kerakki, bularga ko'ra rivojlanishga turtki beruvchi pedagogik tashkiliy ishlar haqida xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Ta'lim jarayonining analizi psixologik diagnostika yo'nalishlarini aniqlab beradi. Biz psixologik diagnostika qo'llanishi lozim bo'lgan to'rtta asosiy muammoni ajratib ko'rsaktishimiz mumkin.

**6.2. Pedagogik jarayon diagnostikasi.** Ma'lum bir predmetdan dars beruvchi o'qituvchi o'quv jarayonini doimo rejalashtirib, amalga oshirib va baholab turmog'i lozim. Va alohida o'quvchilarning u yoki bu predmetga bo'lgan qiziqishlari sinfning ta'lim olishga bo'lgan shart-sharoitlari, yo'nalishi intilishlari haqidagi ma'lumotlarga extiyoj sezadi. Mana shu ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, differensiallashgan pedagogik jarayonni tashkillashtira olmaydi. Bu talabalar ta'lim jarayoni effektivligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu masalani G.Vislag o'quv strategiyasini diagnoz modeli (K.Kauner va D.Rutenberg) va o'zlashtirishning diagnostik kontrol modeli bilan (G. Shals) hal qilishni taklif etadi.

**6.3. Ta'lim jarayonining individual xususiyatlarining diagnostikasi.** Sinf rahbari vaqti-vaqti bilan o'quvchilarning rivojlanganlik darajasini baholab turmog'i lozim. Har o'quv yilining oxirida o'quvchilarga umumiy yozma baholar tuzib chiqadi va ularga bir maktabdan ikkinchisiga o'tishda xarakteristikalar tuzadi. Bunda pedagog psixologning yordamiga extiyoj sezadi. Shuningdek ko'p sonli bolalar mavjudki, ularni rivojlanishning turli bosqichlarida psixologik diagnostika qilish lozim bo'ladi. Masalan, maktabga qabul qilishda, yoki keyingi ta'lim yo'nalishini tanlashda va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan holatlarni tahlil qilish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz. Sobiq GDR qonunlarida shunday deyiladi: Majburiy ta'lim (10 yil) 1 sentyabrdan 31 maygacha 6 yoshga to'lgan bolalardan boshlanadi. Bundan kelib chiqqan holda, demak maktabga borishi lozim bo'lgan bola 6,3 (6 yosh 3 oy) dan 7,3 (7 yosh 3 oy) oraliqdagi yoshda bo'ladi."Istesno holatlarda maktabga borishi lozim bo'lgan bolalar o'zining jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan ta'lim olishga qodir bo'lmasalar va maktabga qabul qilinmasalar, ularning rivojlanish uchun alohida pedagogik usullar tayinlanadi. Kuchli rivojlangan balalar maktabga bir yil oldin qabul qilinishi mumkin, bu erda 1-sentyabrgacha faqat 6 yoshga to'lgan (31 maydan ) keyin) balalar nazarda tutilmoqda. Bolaning maktabga qabul qilinmasligi haqida qaror mahsus tibbiyot ekspertizasi va ruhiy rivojlanish darajasining chuqur taxlili bilan asoslanmog'i lozim. Psixik

rivojlanishni aniqlash bevosita maxsus metodikalar yordamisiz amalga oshmaydi. Shu sababli sobiq GDR da maktabga tayyorgarlikni tekshiruvchi ko'plab metodikalar ishlab chiqilgan edi. Bolalarni maxsus maktablarga yo'llash (oldidan) psixodiagnostik tekshiruv asosida bo'ladi. Bu holat ularga keyingi rivojlanishlarida individual xususiyatlarni hisobga olgan holda maksimal shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Psixodiagnostik metodlarni yaratish va qo'llash qobiliyatli bolalarni maxsus maktablarga qabul qilish, Oliy va O'rta hunar ta'lim o'quv maskanlariga qabul qilish muammolarini echishga yordam beradi.

**6.4. Rivojlanishda orqada qolishning turli formalari diagnostikasi va ularning korreksiyasi.** Biz 2 turli ortda qolishni farqlaymiz: nerv sistemasining organik buzilishi natijasida ortda qolish; (ularga klinik-psixologik va tibbiy diagnostika va terapiya lozim bo'ladi) hamda vaqtincha ortda qolish va noadekvat xatti-harakat (ular asosan sog'lom bolalarda rivojlanishning nomutanosib ichki va tashqi shart-sharoitlar asosida yuzaga keladilar).

Psixodiagnostika nuqtai-nazariga ko'ra bu er ikkita masalani hal qilmoq lozim.

a) ortda qolishning bartaraf etish maqsadida uni keltirib chiqaruvchi ichki va tashqi nomutanosiblik shart-sharoitlarini o'z vaqtida diagnoz qilish.

b) ko'rilgan choralarga qaramay noadekvat xatti-harakatni saqlab qolishga bo'lgan tendensiya ustunlik qiluvchi o'quvchilarga, pedagogik choralar ko'rish maqsadidagi diagnostika.

Korreksion choralar ko'rish uchun asosiy shart-sharoit noadekvat xatti-harakatning tub sabablarini psixodiagnostik ochib berish hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida o'zgarishlarni o'rganish uchun psixodiagnostik metodlar ishlab chiqilmog'i lozim.

**6.5. O'quv jarayoni effektivligini psixodiagnostika qilish, psixodiagnostik tadqiq qilishga qo'yilgan talablar.** Pedagogik jarayonni boshqarish o'quv dasturini amalga oshirishi va kechishi haqidagi ma'lumotlarni talab qiladi. Bu xil ma'lumotlar maktab direktoriga, metodistlarga, o'quv jarayonini boshqarayotgan pedagoglarga juda zarurdir. O'quvchilarning o'zlashtirishini taqqoslash imkonini beruvchi standartlashgan usullarni qo'llash psixologlar va pedagoglar birgalikda ochishi muhim bo'lgan masalalardir. Ta'lim jarayonini psixodiagnostikasi yuqori malakali mutaxassislar yordamida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, intilishlarini, qiziqishlarini, intellekt ko'rsatkichini aniqlashga yordam berar ekan, bu o'z navbatida bu jarayonni sifatli ishonchi hamda murakkab metodikalardan foydalanishni taqozo etadi. O'quvchilar haqida maksimal darajada aniq ma'lumotlarni olish uchun tadqiqot metodikalariga bir qator talablar qo'yiladi. Quyida biz ana shu talablar haqida fikr yuritamiz.

### **Tekshiruv ob'ektini aniqlash.**

Psixologik, pedagogik talablardan kelib chiqqan holda qanday psixodiagnostik ma'lumotlar olinishini aniq belgilash mumkin. Diagnostik metodlarni ishlab chiqarishdagi ko'pgina kamchiliklar diagnostika predmetini etarli darajada aniq belgilanmaganligi natijasi sifatida tushuntiriladi.

### **Tekshiruv metodini aniqlash**

Diagnostika qiluvchi xususiyat aniqlangandan so'ng, shunday faoliyat turlarini tanlash lozimki, bular tekshirilayotgan xususiyat haqida ma'lumotlar berish imkonini bersin.

#### **Metodni taxlil qilish**

Diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish uchun eksperiment o'tkazish sharoitlarini va uning natijalari tahlilini maksimal darajada standartlashtirish lozim bo'ladi. Eksperiment shartlarini standartlashtirishga quyidagilar kiradi:

Eksperimentni o'tkazish, asosan instruksiya, masalan, testlashtirish jarayonini tasviri.

Ma'lumotlarni qayd qilish, ya'ni eksperiment davomida eksperimentning borishi va natijalarini protokollashtirish va qayd qilish.

Ma'lumotlarni tahlil qilish, masalan, verbal ma'lumotlarni klassifikatsiyalash yoki o'lchov natijalarini solishtirish.

#### **Ma'lumotlarni interpretatsiyasi**

Metod asosida yotuvchi nazariy konsepsiya asosida psixodiagnostik ma'lumotlarni tahlil qilish yotadi.

**6.6. Metodlarning sifatlilik kriteriyalarini aniqlash va ishonchliligini tekshirish.** Diagnostik ma'lumotlarning ishonchliligi va sifati ma'lum darajada tekshiruv metodi sifatiga bog'liq bo'ladi. Ular mos keluvchi texnik tekshiruv yordamida avvalo korreksion statik metodlar yordamida aniqlanadi. Metodlarning bir muncha asosiy kriteriyalari quyidagilar hisoblanadi.

Metodning ob'ektivligi, ya'ni olingan ma'lumotlar va ularning psixodiagnostik interpretatsiyasi eksperimentatordan bog'liq emasligi.

G.Vislak quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: test o'tkazishning ob'ektivligi, tahlilning ob'ektivligi, olingan ma'lumotlar interpretatsiyasining ob'ektivligi. Ma'lumki, turli eksperimentorlar bir-biridan mustaqil holatda ayni psixologik metod bilan, bir xil eksperimental sharoitda foydalanadilar. Ular olingan natijalari solishtirilib metodning ob'ektivlik koeffesenti chiqariladi. Ammo metodning ob'ektivligini amaliy jihatdan tekshirishda bir muncha qiyinchiliklar vujudga keladi, chunki bir xil eksperimental sharoitlarni vujudga keltirish juda qiyindir.

Metodning validligi- psixodiagnostik metodning natijalari ayni o'rganilayotgan ob'ekt xususiyatlariga mos kelishidir. Validlik tushunchasini ishonchlilik tushunchasidan farqini o'rganilayotgan tadqiqotning "ob'ekti" va "predmeti" farqini ajratish bilan tushuntirish qulaydir. Ishonchlilik bu jarayonning ob'ektlarga nisbatan barqarorligidir. Ishonchlilik har doim ham



validlikni ifodalamaydi. Ko'pgina psixologlar shunday hatoga yo'l qo'yishadiki, ular avvalo tekshirishning ma'lum bir prosedurasini taklif etib, ob'ektlarni barqaror farq qila olishga bo'lgan uning ishonchliligi ko'rsatiladi-yu, ammo validlik haqidagi masala ochiq qolaveradi.

### **Validlik ishonchlilik**

Bu test validligi uning ishonchliligidan oshib ketmasligini tushuntiradi. (A.G.Shmelev "Osnovo' psixodiagnostiki").

Ma'lumki, validlikning bir nechta turlari mavjud. Maktab psixodiagnostikasida ular o'quv predmetining o'zlashtirishga bo'lgan muvaffaqiyatni tekshirishda test masalalarining ayni shu predmet xususiyatlariga mos kelishida qo'llaniladi.

Konstruktiv validlik - uni baholash testlashtirish ob'ektini psixologik analiz qilishni taqozo etadi. Ya'ni, test natijalari nazariy ajratilgan xususiyatni qay tarzda tekshirishni o'rganadi. Masalan, o'zlashtirishning diagnostik kontrolida mujassam bo'lmagan indekatorlar haqiqatdan ham o'quv jarayonining shart-sharoitlarini namoyon qiladimi yoki yo'qmi va hokazo.

a) Kriterial validlik - test natijalari yordamida, individning bizni qiziqtirayotgan xatti-harakat aspektining hozirgi vaqtdagi va kelajakdagi holati haqida hukm chiqarish mumkinmi yoki yo'qmi, degan masalani aniqlash imkonini beradi. Buni aniqlash uchun test natijalari tashqi kriteriyalar; masalan, maktab baholari bilan solishtiriladi yoki turli testlar natijalari taqqoslanadi.

v) Prognostik validlik- bunda tashqi kriteriyalar sifatida o'zlashtirish va o'quvchining xulq-atvori prognozi kelib chiqadi.

Metodning ishonchliligi- "bu tekshirilayotgan ma'lum bir shaxsiy belgi va xatti-harakat xususiyatining tekshirilishini aniqlik darajasi". Boshqacha aytganda testning bir xil sharoitlarda olingan natijalari taqqoslanib, ishonchlilik koeffisienti aniqlanadi.

Psixodiagnostik metodning ishonchlilik darajasi uchta shartga bog'liq.

- a) metodning ob'ektivligi;
- b) test misollarining bir xilligi;
- v) tekshirilayotgan shaxs xususiyatlarining stabilligi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilishning asosiy vazifalari?
2. Pedagogik jarayon diagnostikasi?
3. Ta'lim jarayonining individual xususiyatlarining diagnostikasi?
4. Rivojlanishda orqada qolishning turli formalari diagnostikasi va ularning korreksiyasi?
5. O'quv jarayoni effektivligini psixodiagnostika qilish?
6. Ta'lim jarayonining psixodiagnostik tadqiq qilishga qo'yilgan talablar.
7. Metodlarning sifatlilik kriteriyalarini aniqlash?

## **7-Mavzu: PSIXODIAGNOSTIKANING PSIXOMETRIK ASOSLARI**

### **Reja:**

- 7.1. Test normalarining reprezentativligi**
- 7.2. Parametrlarni hisoblash va taqsimot tiplari**
- 7.3. Normal qonunni antologiyalashtirishning noqonuniyligi**
- 7.4. Taqsimot barqarorligini tekshirish usullari**

**Tayanch iboralar: Test normalari, anastazin, perametrlarni hisoblash, taqsimot barqarorligi, analiz qilish.**

**Adabiyotlar: 1,3,7,8,9,11**

**7.1. Test normalarining reprezentativligi.** Umuman statistik prosentlar shkala (o'lcham)lardan tashqari differensial psixometrikada ko'pincha foydalaniladigan yana ikki shkala (o'lchamni) va har ikkisi uchun taqsimot etuvchi 2 test normalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular birinchidan, shartli ravishda "absolyut test normalari" deb nomlash mumkin - tashxis chiqarishda "hom" ("so'roy") ochkolar amalda bo'ladi, ikkinchidan, "kriterial test normalari" bu normalarni taqsimot etish ikki holda asosli, to'g'ri o'zini oqlagan hisoblanadi. 1 testning "hom" ("so'roy") shkalasi (o'lchami)ning o'zi amaliy ahamiyatga ega bo'lganda (masalan, chet tilini o'rganayotgan talaba o'rganayotgan tilidan imkoni boricha ko'proq so'z bilishi kerak va leksik testning "hom" ("so'roy") ko'rsatgichi amaliy ahamiyatga ega bo'ladi). 2 kriterial test normalari taqsimot etilayotganda: empirik tadqiqot natijalari testi bilan aniqlangan "xom" ball qandaydir amaliy faoliyatning berilgan natija berishi imkoniyati bilan bog'lanadi. ("Kriterial" faoliyat natija berish imkoniyati, yuqorida keltirilgan fikrga ko'ra, 30 minut davomida monologik sinxron tarjima qila olishi misol bo'lishi mumkin).

Shkala (o'lcham)ning potensial normalashtirish.

1. Punktlarni normalashtirish. Berilgan punkt uchun echim (kalit) normal model bazasida aniqlanadi (korrektiruetsya). Agar normativ saylanma (vo'borka) orasida berilgan topshiriqni sinaluvchilarning 10 tasigina bajarsa, "qiyinchilik" intervali shkalasida (o'lchamida) berilgan punktga (parametrlari  $Mq_0$  va  $Oq_1$  bo'lgan normal model qabul qilingan sharoitdagina)  $Q_1$  ifodasi (znachenie) mos keladi. (A. Anastazining grafik illyustrasiyasiga qarang. Kitob: "Psixologicheskaya testirovanie". M, 1982 g. str 181). Agar 75% sinaluvchilar bajarsa, sigma shkala (o'lcham)da punkt bali-0,67 ga teng. Punktlar bo'yicha ballar yig'ilishi natijasida, ya'ni aniqlangan (skorrektirovanno'y) normalashtirish natijasida, yig'indi ballar normal taqsimotga yaxshiroq yaqinlashadilar.

2. Yig'indi ballar taqsimotini normallashtirish (yoki interval normallashtirish). Bu holda normal taqsimot jadvali bo'yicha (normal interval bo'yicha) potensial shkala (o'lcham)dan sigma shkala (o'lcham)ga o'tish amalga oshiriladi: intervallikka teskari, funksiyadan foydalaniladi - normal taqsimotning ordinatasidan absissaga o'tish amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek inson (hayvonot) organizmi biologik xarakteristikasi juz'iy o'zgarishlarni tadqiq etishda normal taqsimotning vujudga kelishi genotip turg'un faktor va fenotip o'zgaruvchan tasodifiy faktorlari o'zaro ta'siri mavjudligi bilan bog'lanadi, shuningdek, individlararo psixologik xilma xillikning kelib chiqishi normal egri chiziq o'qida individ o'rnini go'yo oldindan belgilovchi sifatidagi genotip kod bilan bog'lanadi. Amalda esa ko'pincha maxsus statistik murakkab jarayonda amaliy ishda erishiladigan vujudga keladigan normal egri chiziqni irsiyat mexanizmi amal qilishga nisbatan berish uchun hech qanday asos yo'q.

Unga ta'sir etuvchi sun'iy tadbirlarsiz katta tanlov (saylanmada) normal taqsimotni olishga erishgan hollarimiz ham yana genetika aralashuvini bildirmaydi. Normal taqsimot qonuni har safar o'lchanayotgan xususiyat (individ layoqatining ma'lum bir rivojlanishi darajasi shakllanishi) ga bir-biriga bog'liq bo'lmagan yo'nalishi va kuchiga ko'ra faktorlar ta'sir qilayotganda qayta namoyon bo'ladi. Sub'ekt o'zida his qiluvchi, his etuvchi, uning tiriklik davridagi voqelik ta'sirlari tarixi xuddi o'zaro bog'liq bo'lmagan turli-tuman voqea hodisalar ketma-ketligi kabidir: ayrim faktorlar ijobiy, boshqalar salbiy yo'nalish bo'yicha ta'sir etadi. Natijada ular ta'sirining o'zaro yutib yuborilishi, yo'qqa chiqarilishi ularning muayyan bir yo'nalishga (ko'proq ijobiy yoki salbiy) ega bo'lishiga qaraganda ko'proq bo'ladi, ya'ni normal taqsimot vujudga keladi. Ommaviy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'rta ommaviy faktorlardan (masalan, ota-onaning ma'lumoti darajasi) biri ustidan nazoratning kiritilishi normal taqsimot egri chizig'ining tabaqalashuviga olib keladi. Saylanma egri chiziqlar bir-biriga nisbatan siljigan bo'ladi. Bu natijalar statistik diagnostik normalarning ijtimoiy madaniy kelib chiqishini yorqin isboti bo'lib xizmat qiladi. Shunday ommaviylik (populyasiya) larni bir turli deyish mumkinmi, ularga nisbatan bir xil saylanma mexanizmi ta'sir etadi: Testni vujudga keltirish (standartlashtirish) va uni diagnostik tadbiq etish vaziyatlarida. Bu erda "normal ixtiyoriylik" fenomeni kabi "shaxs" larni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Agar standartizasiya saylanmasi o'z ixtiyori bilan rozilik bergan studentlarda shakllantirilsa va agar testlar aralash saylanmada (ma'muriy yo'l bilan) o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, unda diagnostik xukmlarda ma'lum bir xatoliklarga yo'l qo'yish xafidan xoli bo'lmaydi, chunki ko'ngillining psixologik portreti ma'muriy majburlash bilan rozi bo'lgan sinaluvchilikidan farq qiladi.

**7.2. Parametrlarni hisoblash va taqsimot tiplari.** Saylanma taqsimotining bayoni uchun, qoidaga ko'ra, quyidagi ma'lum parametrlaridan foydalaniladi.

1.O'rta arifmetiklik:

$$\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = \sum_{i=1}^m P_i Y_i \quad (3.1.1.)$$

$x_i$  q sinalluvchi  $i$  ning ballari.

$Y_i$  q ballar ortib borishi tartibi bo'yicha ko'rsating.

$P_i$  q  $i$  ballari uchrashi takrorlanish.

$n$  q saylanmada sinalluvchilar soni.

$m$  q shkala bo'linmalari soni (ballar soni) (yig'ilgan) ko'p-kamlik:

$$F_i = \sum_{j=1}^i P_j$$

$F^*$  qatorda kumulyativ (yig'ilgan) ballar:

$$F_i^* = F_i - \frac{1}{2} P_i$$

$FR$  qatorda-prosent daraja (rang) lar.

$$PR_i = F_i^* \cdot 100 / F_n$$

$B$  qatorda jadvallardagi mos keluvchi potensial daraja (rang) lardan olingan normallashtirilgan ballar berilgan.  $B$ -baholar chet el adabiyotlarida  $Z$ -baholar, deb ham yuritiladi.

X	3	4	5	6	7	8	9	10	
P	2	18	13	8	10	6	4	1	n κ 62
F	2	20	33	41	51	57	61	62	
F	1	11	26.5	37.0	46	54	59	61.5	
PR	1.6	17.7	42.7	59.7	74.2	87.1	95.2	99.2	W κ 100
B	-2.1	-0.9	-0.2	0.2	0.6	1.1	1.7	2.4	M κ 0 B κ 1

Interval normallashtirishdan foydalanishni boshlayotganlar duch keluvchi qiyinchilik shundan iboratki, odatdagi statistik jadvallar psixometrikaga mos kelgan emas: potensial daraja (rang) ifodasini (znachenie) jadval ichidan mos keluvchi sigma-bahona chekkasidan izlab topish kerak bo'ladi. Mo'ljalki (orientasiya) engillashtirish uchun PR mos keluvchi,  $b$  va sten mos keluvchi jadvali ko'rinishidan qisman keltiramiz. 2-jadval.

PR	99	95	90	85	80	75	70	65	50	55	
$\bar{b}$	2,33	1,64	1,28	1,04	0,84	0,68	0,52	0,39	0,25	0,13	
sten	10	10	9	8	8	7	6,5	6,5	6	6	
PR	50	45	40	35	30	25	20	15	10	5	1
$\bar{b}$	0,0	-0,13	-0,25	-0,39	-0,52	-0,68	-0,84	-1,04	-1,28	-1,64	-2,33
sten	5,5	5	5	4,5	4	4	3	3	2	1	1

Odatdagi jadvallarda smitriya mulohazasidan kelib chiqib ma'lumot faqat  $PR > 50$  ifodasi uchungina berilgan  $PR < 50$  uchun mos keluvchi ma'lumot o'sha jadvallarning o'zidan  $\delta \kappa \Psi^{-1} (1-PRF100)$  ni hisobga olib keltirib chiqariladi. Masalan,  $PR_{\kappa 35} \text{ uchun } 1-PRF100_{\kappa F-0,35\kappa 0,65}$  ni topamiz, keyin jadval bo'yicha  $\Psi^{-1} \kappa 0,39$  va bu ifodani manfiy ishora bilan olamiz  $-0,39$  normallashtirish grafik metoddan foydalanish qulay (normal qog'oz, standart S shaklidagi egri chiziq va h.k.)

**7.3. Normal qonunni antologiyalashtirishning noqonuniyligi.** An'anaviy psixometrikada normal taqsimot berilgan ma'lumotlar bilan ishlashni engillashtiruvchi vositachi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Lekin bu normal taqsimotning sun'iy vujudga keltirilganini yoddan chiqarish mumkin, degani emas. F.Galton asos solgan G'arb testologiyasi an'analar, psixometrika va biometrika nazariy tushuncha, tasavvurining o'xshashligini, bir xilligini o'rganadi.

2) O'ta kvadrat (standart) ochish:

$$S = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2}{n}} \approx \sqrt{\frac{\sum x^2 - (\sum x)^2 / n}{n-1}}$$

$\sum x^2 - n$  siniluvchilar uchun test ballari kvadrati yig'indisi.

3) Asimetriya:

$$As = \frac{1}{s^3} (0 - 3c \frac{2}{x} + 2 \bar{x}^3)$$

x-o'rta arifmetik

### S-standart og'ish

$$\text{O-o'rta kublik: } O = \sqrt[3]{\frac{1}{n} \sum x^3};$$

$$\text{C-o'rta kvadratlilik: } c = \sqrt{\frac{1}{n} \sum x^2}$$

4)Ekssess:

$$\sum x = \frac{1}{s^4} (a^4 - 4\Theta^3 \bar{x} + 6c^2 \bar{x}^2 - 3\bar{x}^4) - 3$$

Q-to'rtinchi darajaning o'rtacha ko'rsatkichi

$$Q = \sqrt[4]{\frac{1}{n} \sum x^4}$$

O'rta arifmetiklik (matematik kutilgan natija) standart xatosi quyidagi formula orqali baholanadi:

$$S_m = \frac{s}{\sqrt{n}}$$

Matematik kutilgan natija xatosi asosida ishonch intervali quriladi:

$$(\bar{x} - 2S_m, \bar{x} + 2S_m)$$

qaysidir sinaluvchining test balli agar ishonch intervali chegarasiga to'g'ri kelib qolsa, sinaluvchi statistik ma'lumotning berilgan darajasi bo'yicha o'lchanayotgan xususiyatining yuqori (yoki past) ko'rsatgichiga ega, deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. Bo'linma (shkala)ni standartlashtirish psixometrikada standartlashtirishning ikki shaklini farqlash lozim. Testni standartlashtirishda birinchi navbatda instruksiyalar o'tkazish, banklar, ro'yxatga olish usuli, shartlari va h.k.lar tushuniladi.

Testlarni standartlashtirishsiz test ballarini normativ taqsimlashga, demakki, test normalari taqsimotiga erishib bo'lmaydi.

Shkala (bo'linma) standartlashtirish deyilganda normal (yoki sun'iy normallashtirilgan) bo'linma masshtabini tarmoqli o'zgartirilishi tushuniladi: Umumiy holda standartlashtirish formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Z_i = \delta \frac{x_i - \bar{x}}{S} + M \quad (3.1.13)$$

$x_i$ - "xom" bo'linmadagi boshlang'ich ball, unga taqsimot normalligi tasdiqlangan.

$x$ - "xom" taqsimot bo'yicha o'rta arifmetik.

S- "xom" standart og'ish.

M-tanlangan standart bo'linmasi bo'yicha matematik kutilma (ojadanie)

$\delta$ -standart bo'linma bo'yicha standart og'ish agar bo'linma oldindan ittervallarni sun'iy normallashtirishga solingan bo'lsa, unda formula soddalashadi.

$$Z_{iK} \delta Z_{iKM}$$

eng keng tarqalgan standart bo'linmalar uchun parametrlar keltiramiz:

1) Makkal T-bo'linmasi (test savollar MMR va boshqa testlar):

$$M_{K50} \text{ va } \delta_{K10}$$

2) bo'linma 1Q:Mq100 va  $\delta_{K15}$

3) “stenoy” bo'linmasi (1 dan 9 gacha butun sonli ifoda standart to'qqizlik);

$$M_{K5,0} \text{ va } \delta_{K2}$$

4) “stenlor” bo'linmasi (standart o'nlik, Kettellning 16 PF):  $M_{K5,5}$  va  $\delta_{K2}$

Intervallarni notorval, normllashtirish va tarmoqli standartlashtirish yordamida olingan standart ballarni farqlash uchun R.Kettell “S-stenlar” va “n-stenlar” tushunchalarini kiritdi. “n-stenlar” tabiiyki empirik normal taqsimot kriteriyasini aniqroq aks ettiradi. Ko'rgazma uchun 16 PF test savolnomasidan A faktor uchun shunday jadval namunasini keltiramiz.

“Xom” ochko	0-4,	5-6	7	8-9	10-12	13	14-15	16	17-18	19-20
(steno')	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

standart shkala bo'linmalarini tadbiq etish amalda test ballari taqsimotini ancha sodda yaqinlashtirilgan usullariga murojaat etishni taqozo qiladi. Agar masalan, stenlarga o'tkazish bilan prosent normallashtirish va stenlarga o'tkazish bilan tarmoqli normallashtirish (3.1.13) formula bo'yicha har bir V uchun stenlarning mos keluvchi butun qiymatini bersa bu shuni bildiradiki, taqsimot “standart o'nlik” gacha aniq normallikka ega.

Standart bo'linma (shkala) larni tadbiq etish turli testlar natijalarning o'zaro munosabatda bo'lishi, testlar batareyasi bo'yicha “diagnostik profillar” qurish va shu kabi maqsadlar uchun zarurdir.

**7.4. Taqsimot barqarorligini tekshirish usullari.** Taqsimot barqarorligini tekshirish umumiy mantiqiy induktiv mulohaza yuritishga asoslanadi: agar “yarim” (saylanma yarmi bo'yicha olingan) taqsimot butun taqsimot konfigurasiyasini yaxshi modellashtirilsa (modelni ifodalasa) bu butun

taqsimot shuningdek butun asosiy majmua taqsimotini ham yaxshi modellaydi, deb tahlil qilish mumkin.

Shunday qilib, taqsimot barqarorligini isbotlash test normalarining rekrezentativligi isbotlashni bildiradi. Barqarorligini isbotlashning an'anaviy usuli empirik taqsimotni qandaydir nazariy taqsimotga yaxshiroq yaqinlashtirishni tushunib etishga olib keladi. Lekin empirik taqsimotga nazariy taqsimoti yaqinlashmasa saylanmalar miqdorining sezilarli ortib borishiga qaramay umumiyroq bo'lgan induktiv metodga murojaat etishga to'g'ri keladi.

Uning eng sodda varianti butun saylanma natijalar bo'yicha normallashtirilgan shkalaga "xom" (ishlanmagan) ochkolarni o'tkazish jadvalini olishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Keyin bu jadvalni saylanma yarmidagi har bir sinaluvchiga tadbiq etish mumkin: agar saylanma yarmidagi normallashtirilgan ballar taqsimoti normalikka yaxshi yaqinlashsa, demak, normallashtirish jadvalida berilgan test normallari barqarordir. Normal taqsimotga yaqinlik Kolmogorov mezonini (o'lchovi) yordamida aniqlanadi ( $n < 200$  bo'lganda kuchliroq mezonlar "xi-kvadrat" yoki "oliga-kvadrat" lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir)

Bunday saylanmaning "yarmi", deganda tasodifiy yarim tushuniladi, unga sinaluvchilar tasodifiy shaklda, usulda qabul qilinadi, ya'ni tasodifiy ketma-ketlik yoki qur'a tashlashning bir mazmunda yoki bir xilda ekanligini tekshirishning turg'un va ancha to'g'ri metodi yana Kolmogorov mezonidan foydalanish bilan bog'liq. Buning uchun jadval ma'lumoti bilan quyidagi miqdor taqqoslanadi.

$$k_e = \max(F_{i1} - F_{i2}) \sqrt{n/4} \quad (3.1.15)$$

$F_{i1}$ - saylanmaning birinchi yarmi bo'yicha shkalaning  $i$ -intervali uchun yig'indi (kumulyativ) nisbiy chastota.

$F_{i2}$ - ikkinchi yarim uchun shunday chastota  
 $n$ -to'la saylanma miqdori.

$K_e$ -Kolmogorov statistikasi empirik miqdori.

---

Test ballarini taqsimlash, analiz qilish, test normallarini tuzish va ular reprezentativligini tekshirish bo'yicha operatsiyalar:

1. Testni tadbiq etish mo'ljallanayotgan omilidan standartlashtirish aylanmasini shakllantirish (qandaydir parametri bo'yicha tasodifiy yoki boshlanishga ega) har bir sinaluvchida testlarni qisqa muddatda o'tkazish.

2. Tanlangan kvontlash (teng ma'nolik intervali) intervalini hisobga oldgan holda "ishlanmagan" ("xom") ballarni guruhlash. Interval WG'm kattalik bilan aniqlandai. Bunda  $W_{qx}$  max-xm:n-tebranish: m-teng ma'nolik intervallari miqdori.

3. Test ballari chastotasi taqsimotini tuzish jadval ko'rinishida va mos keluvchi chastogramma hamda kumulyat grafiklari ko'rinishida.



4. Kompyuter yordamida o'rtacha va standart og'ish, shuningdek asimmetrik va ekszell hisobini chiqarish tekshirish natijalarini taqsimot egri chiziqlarini vizual analiz qilish bilan taqqoslash.

5. Kolmogorov mezoni yordamida taqsimotlardan birining normalligini tekshirish ( $n < 200$  bo'lganda kuchliroq mezonlar yordami bilan) yoki standart shkalaga o'tkazish bilan prosent normallashtirishni amalga oshirish, shuningdek, tarmoqli standartlashtirishni amalga oshirish va ular natijalarini taqqoslash (standart ochkolarning butun ifodasigacha aniqlik bilan)

6. Mos kelish bo'lmasa, ya'ni normallik inkor qilinsa, unda taqsimot turg'unligini saylanmani ikki tasodifiy bo'limlarga ajratib tekshirish kerak.

Butun saylanma va uning yarmi uchun normalashtirilgan ballar mos kelsa normalashtirilgan shkalani barqaror deb hisoblaydi.

7. Kolmogorov mezoni bo'yicha taqsimot bir jinsliligini berilgan ommaviy belgi variantlashtirilishiga nisbatan (jins, ixtisos va h.k) tekshirish.

Birga qo'shilgan koordinatlarda to'la yoki yarim saylanmalar uchun chistogramma va kumulyat grafiklarini tuzish. Farqlanishlarda saylanmani turli kichik saylanmalarga ajratish.

8. Prosent normalashtirilgan test normalari jadvallarini tuzish (har bir "ishlanmagan" ballar teng ma'noligi interval uchun). Turli ma'nodagi kichik saylanmalar mavjud bo'lganda ularning har biri uchun alohida jadval bo'lish kerak.

9. O'rtacha miqdorni aniqlashdagi standart xatolarni hisobga olib, ishonchli intervallar uchun ( $P < 0,01$  darajada) kritik, nuqtalarni (eng yuqori va quyi) aniqlash.

10. U yoki bu test echimining mo'ljallanayotgan mexanizmni hisobga olgan holda olingan taqsimot konfigurasiyasini muhokama qilish.

11. Negativ natija namoyon bo'lganda shkalaning bosqichlari soni bo'yicha barqaror normalar yo'q bo'lganda (mezonli faoliyat prognozining buyurilgan (aniqligi bo'yicha))-kattaroq saylanmani tekshirishni amalga oshirish yoki mazkur testdan foydalanish rejasidan voz kechish kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Test normalarining reprezentativligi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Anastazining grafik illyustrasiyasini sharqlang?
3. Parametrlarni hisoblash va taqsimot tiplarini tushuntiring?
4. Normal qonunni antologiyalashtirishning noqonuniyligi nima?
5. Taqsimot barqarorligini tekshirish usullari?
6. Test ballarini taqsimlash, analiz qilish, test normalarini tuzish va ular reprezentativligini tekshirish bo'yicha operasiyalar?

## **8-Mavzu: VEKSLER METODI VA UNING MOSLASHTIRILGAN VARIANTI. INTELLEKT VA UNI O'LCHASH**

### **Reja:**

**8.1. Intellect va uni o'lchash (S.L.Rubinshteyn)**

**8.2. Veksler metodi bo'yicha intellektni o'lchash**

**8.3. Umumiy xabardor bo'lish va tushunishning subtesti**

**Tayanch iboralar: Intellect, intellektni o'lchash, subtest, Veksler metodi, analiz qilish.**

**Adabiyotlar: 1,3,7,8,9,11**

**8.1. Intellect va uni o'lchash (S.L.Rubinshteyn).** Intellect tushunchasi sobiq sovet psixologiyasida umumtan olingan emas. Lekin S.L.Rubinshteyn (1973 y) fuqarolik xuquqlarni bu termin orqali tushuntirgan. Uning mazmuni ham turlicha qabul qilinadi. Ba'zilar uchun bu shaxsning umumiy iqtidorlik ekvivalenti bo'lsa, (Rubinshteyn, Spirmen), boshqalar uchun Yangi amaliy va teoretik bilimlarni egallash ramzi. (A.Bine, D.Veksler, L.M.Termin, R.L.Torndayk) va uchinchilar uchun barcha darajalardagi harakatlarning umumiy regulyatori (J.Piaje).

Intellect tushunishda B.G.Ananev tomonidan original yondashuv taklif qilingan. B.G.Ananev inson rivojlanish potentsiallarining umumiy yig'indisida institutga alohida ahamiyat bergan. Intellectni u, bilish kuchlarining ko'pdarajali tashkillanishi sifatida ko'rgan. Bu esa psixofiziologik proseslarni, shaxs holatlari va xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Biz tomondan o'rganilgan aqliy harakatlar yig'indisini o'rgatish proseslari bilan bog'liq bo'lgan intellektual faoliyat effektivligini aniqlash uchun etarli deb hisoblash mumkin. Ularni o'rganish an'anaviy tarzda psixologiyada mentimetrik yo'nalishlar bilan bog'liq va konkretroq L.Bine, L.Termen, D.Veksler nomlari bilan bog'liq. Bu metodikalar nafaqat psixodiagnostik ahamiyatga, balki, o'lchash texnikasining taqqosiy portativligiga ham ega. Buni dala sharoitlarida keng qo'llash mumkin va o'z navbatida metodikani ajratib olishda ko'zga ko'rinarli rol o'ynaydi. Intellectga metodika tanlashda asosiy kriteriy bo'lib, ishonchlilik va D.Veksler (1955 y) metodikasining validligi. Bu metodik eksperimental ma'lumotlarga taqqoslanish bilan isbotlangan. Ma'lumotlar boshqa kattaroq metodikalar va tekshiriluvchilarimizni Oliy o'quv yurtida o'qishlari davomida davomiy kuzatishlar orqali bizning kompleks tadqiqotlardan olingan.

**8.2. Veksler metodi bo'yicha intellektni o'lchash.** Intellektga standartlashtirilgan Veksllarning metodikasi 11 ta turli-xil vazifalardan iborat, ulardan har-biri alohida metodikani ifodalaydi va ilgaritdan sobiq sovet va chet el psixologiyasida qo'llanilib kelingan, oxirgi paytda esa injener va mehnat psixologiyasida keng qo'shanilmoqda.

Veksler metodikasi katta yoshdagilarni butun kattalik davri (16 yoshdan 15 yoshgacha) mobaynida intellekt xususiyatlarini va o'zgarishlarini aniqlash uchun belgilangan.

Veksler umumiy intellektni ikki guruhda mavjudligini tan oladi: Verbal-6 va noverbal-5.

**8.3. Umumiy xabardor bo'lish va tushunishning subtesti.** Verbal maktab

### **1. Umumiy habardor bo'lishning subtesti.**

Bu erda nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlar zaxirasi o'rganiladi, bunga muvofiq esda saqlab qolishning to'g'riligi, turg'unligi. Ma'lum darajada mazkur subtest savollari yordamida qiziqishlarni aniqlash mumkin. Eksperimental ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, umumiy habardor bo'lish yoki o'tishi bilan susayishi qiyin bo'lar ekan. Hammasi bo'lib 29 ta savol taklif etiladi. To'g'ri javob uchun 1-ball.

Misollar:

- Rezina nimadan qilinadi?
- Nimaga, quyoshda to'q kiyimda och kiyimga nisbatan issiq bo'ladi?
- Gnoseologiya nima?

Funksiya:

Materialni uzoq vaqt davomida hotirada saqlab turish. Assosiasiyalar va malaka tashkillanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Madaniy muhit, qiziqishlar.

### **2. Umumiy tushunishlikning subtesti.**

Subtest ifodalar ma'nosini tushunish qobiliyatini, fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini, "sog'lom fikrni" o'lchaydi. Yana ijtimoiy, ma'naviy normalarni tushunish darajasi(ni) ifodalanadi. Tekshiriluvchidan berilgan holatni bir necha gaplar bilan adekvat echilishi talab etiladi. Veksler "sog'lom fikr" mukammal kompleksli funksiya, va bu erda nafaqat intellektual, balki emosional faktorlar ham ishtirok etadi. Yosh o'tishi bilan bu subtestga ko'ra ahamiyatli natijalar o'zgarishi kuzatilmaydi, 14 ta savol taklif etiladi. Baho javobning to'g'riligiga ko'ra qo'yiladi: 0,1,2.

Misollar:

- "Temirni issig'ida bos" qanday ma'noni bildiradi?
- Nimaga kar bo'lib tug'ilgan odam gapirolmaydi?

Funksiya:

Abstrakt tafakkur. Bilimlar tashkillanishi. Tushunchalar shakllanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:  
Real holatlarga reaksiya. Diqqat hajmi.

### **3. Arifmetik subtest.**

Bu subtestda arifmetik vazifalar seriyasini og'zaki echish talab etiladi. Vazifalarni echishiga qarab diqqatni konsentrasionalash qobiliyati, sonli materialni qo'llashini engilligi haqida fikr yuritish mumkin. Arifmetik operatsiyalarni miyada bajarish qobiliyati yosh o'tishi bilan keskin yomonlashmaydi. Baholashda faqat javobning aniqligiga qaralmaydi, vazifani echish uchun sarflangan vaqtga ham ahamiyat beriladi.

Misollar:

- Ikkita olma konservalangan bankalar narxi 31 tiyin. 12 ta bankaning narxi qancha bo'ladi?

- Sakkizta odam ishni 6 kunda bajara oladi. Ishni yarim kunda bajarish uchun nechta odam kerak bo'ladi?

Funksiya:

Xotirada (arifmetik operatsiyalarni) saqlanib qolishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Asosiy arifmetik operatsiyalarni egallash imkoniyati.

### **4. O'xshashlik o'rnatish subtesti.**

Tekshiriluvchining vazifasi - bir qator tushunchalar umumiyligini o'rnatish. Tushunchalarni shakllantirish qobiliyatiga qarab baholanadi. Idrok etilgan materialni klassifikatsionalash, tartiblash, abstraktlash, taqqoslash, o'xshashlik va farqlarni ajratish qobiliyati ko'rinadi. Bu subtest natijalari, vaqt chegaralanmaganligiga qaramay yosh o'tishi bilan pasayadi. Baho 0 va 2 ballar orasida variflanadi va tekshiriluvchining tashqi taqqoslanmaydigan tushunchalarni birlashtiruvchi umumiylikni qanchalik yaxshi topilishiga bog'liq. Javoblarning quyidagi darajalari ajratiladi: konkret, funksional va konstitusional. Masalan: "libos-polto" juftligi o'rtasida umumiylikni o'rgatishda quyidagi javoblar bo'lishi mumkin:

1. Bir xil matodan qilingan va tugmali.
2. Biz ularni kiyib yuramiz, issiqlik beradi.
3. Ustki kiyim.

Javoblarning bunday variantlari yuqorida berilgan 3 ta darajalarga muvofiq, tushunchalarning 13 ta juftligi taklif etiladi.

Misollar:

- apelsin-banan; havo-suv.

Funksiya:

Aloqa va o'zaro bog'liqliklarning analizi.

Verbal tushuncha shakllanishi.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Madaniyatga yondashishning minimal imkoniyatlari.

### **5. Sonli qatorlarni qaytarish subtesti.**

Diqqatni va operativ xotirani tadqiqot qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ikki qismdan iborat: sonlarni teskari va to'g'ri tartibda qaytarish. Gerommi ko'rsatishcha sonlarni to'g'ri tartibda qayta tiklash yosh o'tishi bilan susayadi. Sonlarni teskari tartibda qayta tiklash nisbatan yaqqolroq ko'rinadi. Eksperiment tekshiriluvchi sonli qatorlarni xatosiz tiklay olishning susayishiga qadar davom etadi. Birinchi seriyada maksimal ball-9. Ikkinchi seriyada maksimal ball-8.

#### **To'g'ri tartibda eslab qolinadigan sonlar:**

6439 42731 619473 5917423 58192647  
7286 75836 392487 4179387 38295174.

#### **Teskari tartibda eslab qolinadigan sonlar:**

283 3279 15286 539418 8122936  
415 4968 61943 724856 4739128.

#### **Funksiya:**

Tezkorlik bilan qayta tiklash. Eshituv obrazlari. Ba'zan ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar;

Diqqat hajmi.

### **6. Lug'aviy subtest.**

So'zlar ro'yxati, ular ma'nosini tushuntirish vazifasi bilan taklif qilinadi. Bu subtestda so'z boyligi baholanadi. So'z boyligi olingan ta'lim darajasiga bog'liq. Hammasi bo'lib 40 ta so'z bor, birinchi 10 ta so'zlar keng tarqalgan, har kuni ishlatiladiganlar, ikkinchi o'ntalik-o'rtacha qiyinchilikka ega bo'lgan so'zlar, ularni adekvat traktovka qilish uchun ma'lum darajada ma'lumotli bo'lish kerak bo'ladi, va nihoyat mukammal so'zlar, ularni ma'nosini anglatish uchun chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Subtest natijalari qarshi jarayonida oz miqdorda o'zgaradi. Baholash u yoki bu so'zni aniq tushuntirishga nisbatan baholanadi, 0 dan 2 gacha bo'ladi.

#### **Misollar:**

1 guruh so'zlari: olma, stol, nonushta, qish.

2 guruh so'zlari: hukm, mikroskop, ibodatxona.

3 guruh so'zlari: urush, geoid, ballast.

#### **Funksiya:**

Til rivojlanishi. Tushunchalar shakllanishi.

#### **Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:**

Madaniyatga o'rgatish imkoniyatlari.

Noverbal maktab.

### **7. Sonlar shifrokasi (b) subtesti.**

Sonlarning bir necha qatori beriladi, har bir sonning tagida uunga muvofiq simvolni chegaralangan muddat davomida yozib chiqmoq kerak. Ko'ruv harakat malakalarni o'zlashtirish darajasi, ko'ruv harakatli stimullarni integrasiyalashga bo'lgan qobiliyat tadqiqot qilinadi. Subtestni muvaffaqiyatli bajarish 40 yoshdan

boshlab susayib boradi. Baho belgilangan vaqt ichida to'g'ri shifrlangan sonlar miqdoriga muvofiq.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	Baho
-		J	L	V	O		X	q	

Funksiya:

Takror tarzda qayta tiklash. Vizual-motorli integrasiya. Ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar;

Harakatli faollik darajasi.

### **8. Etishmayotgan qismlarni topish subtesti.**

Testli vazifa 21 ta sur'atlardan iborat bo'lib, ularning har birida qandaydir qismi etmaydi yoki muvofiqsizlik mavjud. Ko'ruv idrokning xususiyatlari kuzatuvchanlik muhimlardan ahamiyatsiz qismlarni ajrata bilish qobiliyati o'rganiladi. 20 sekund vaqt davomida berilgan to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.

Funksiya:

Ko'ruv idroki: analiz. Ko'ruv obrazlar.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

O'rab turgan atrof muhitni idrok etish malakasi. Ba'zan ko'rish o'tkirligi.

### **9. Kossa kubiklar subtesti.**

Subtestdagi vazifa - 10 ta rasmlarni ketma-ketlikda har xil rangli taxta kubiklardan (har bir kubik diogonal bo'yicha ikkita rangga bo'lingan: oq va qizil) qayta tiklash. Bu erda avvalombor motorsensorli kordinasiya, materialni osonlik bilan manipulyasiya qilish, qismlardan butunni sintez qilish qobiliyat o'rganiladi. Vaqt har bir vazifaga ko'ra chegaralanadi. Baho bajarishining aniqligi va sarf etilgan vaqtga bog'liq.

Funksiya:

Shaklni idrok etish. Ko'ruv idroki: sintez.

Vizual motorli integrasiya.

Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:

Harakatli faollikning darajasi. Rangli ko'ruvning minimal darajasi.

### **10. Ketma-ket rasmlar subtesti.**

Rasmlarning 8 ta seriyasi taqdim etiladi, seriyalarning har biri syujet bilan birlashtirilgan va tekshiriluvchi namoyish etmayotgan hodisalarni ularning davriy ketma-ketligiga muvofiq tarzda tartibga solish kerak. Fragmentlarni mantiqiy butunlikka keltirish qobiliyati o'rganiladi. Situasiyalarni tushunish qobiliyati. Vekslarning ta'kidlashicha taqdim etiladigan situasiyalarni tushunish uchun hazilkashlik bo'lishi kerak. Baho ilgari subtestdek to'g'ri bajarilishi va sarflangan vaqtga bog'liq. Alohida

vazifalarga baho har xil. 4 balldan 6 ballgacha. Vazifalar borgan sari murakkablashadi.

**Funksiya:**

Munosabatlarning ko'ruv idroki (vizual intuisiya, munosabatga kirishish).

**Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:**

Madaniyatga kirishishning minimal imkoniyatlari. Ba'zan ko'ruv o'tkirligi.

11. Figuralarni tuzish subtesti.

Tekshiriluvchiga ma'lum ketma-ketlikda to'rtta figuraning qismlari taqdim etiladi. ("Inson", "profil", "qo'l", "fil") qismlardan nimalarni tuzish. Kossaning kubiklar subtestida o'rganiladigan faktorlar o'rganiladi. Avvalombor, ko'ruv motorli koordinasiya. Subtest vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish yoki o'tish bilan ko'rinarli susayodi, lekin ilgari keltirilgan 3 ta subtest singari emas. (Kossaning "kubiklari etishmayotgan qismlar" va "ketma-ket rasmlar"). Baholashda sarflangan vaqt va to'g'ri bajarilganlik inobatga olinadi.

**Funksiya:**

Ko'ruv idrok: sintez.

Vizual motorli integrasiya.

**Natijaga ta'sir etuvchi faktorlar:**

Harakat faollikning darajasi.

Harakatli faollikning aniqligi, yaqqolligi.

**Nazorat savollari:**

1. Intellekt va uni o'lchash (S.L.Rubinshteyn)?
2. Veksler metodi bo'yicha intellektni o'lchash?
3. Verbal va noverbal metod.
4. Umumiy xabardor bo'lishning subtesti?
5. Umumiy tushunishning subtesti va xokazolar?
6. Veksler metodi bo'yicha intellektni o'lchashda funksiya, natijaga ta'sir etuvchi faktorlar deganda nimalarni e'tiborga olasiz?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 kn. Per. s ang. (Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo M. Pedagogika, 1982g.).
2. Bleyxer V.M. Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti. K. Visha shk, 1978 g. 142 st.
3. Burlachuk L.F. Psixodiagnostika lichnosti. K. Zdorovya. 1989 g. 168 st.
4. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Krutenskiy V.A. Qobiliyat va uning diagnostikasi. T., "O'qituvchi" 1979 y.
5. Obshaya psixodiagnostika. M: Izd-vo M., Un-ta. 1987 g. 305 st. Pod red. A.A.Bodaleva.
6. Praktikum po psixodiagnostike, Differensialnaya psixometrika. (Pod red. V.V.Stolina, A.G.Shmeleva. M: Izd-vo M., Un-ta, 1984 g. 154 st.
7. Talo'zina N.F., Karpov Yu.V. Pedagogicheskaya psixologiya. M:Izdvo. M, Un-ta 1987 g.
8. G'oziev E.G'. O'quvchilarning umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. T., "kit" 1983 y.
9. G'oziev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. T., 1990 y.
10. G'oziev E.G'. Psixologiya. T., "O'qituvchi" 1994 y.
11. G'oziev E.G'. Aqliy kamolotingizni aniqlay olasizmi? "Universitet" 1996 y. T., "Universitet" 1996 y.
12. G'oziev E.G'. Zamonaviy va individual va guruhiiy psixologiya. T.,Universitet. 1999 y. 1,2 b.t.
13. G'oziev E.G'. Psixologiya muammolari. T., "Iqtisodiyot universiteti" 8,5 b.t.
14. G'oziev E.G'. Tashkiliy psixologiya ma'ruzalar matni. T., Universitet 6 b.t.
15. Obshaya psixologiya. M., prosveshenie, 1997 (pod red.) A.A.Petrovskogo
16. Psixologicheskii slovar M.,: Pedagogika, 1983. (pod red) Davidov V.V.
17. Slovar po prakticheskoy psixodiagnostik M, 1993.



## MUNDARIJA

<b>1-Mavzu: Psixologik-pedagogik diagnostikaning vazifalari va maqsadlari</b> . 4	
1.1. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari. ....	4
1.2. Talabalarni psixologik pedagogik diagnostikasining nazariy asoslari yo'nalishlari, bosqichlari va tamoyillari. ....	5
1.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatlarni rivojlantirish. ....	6
<b>2- Mavzu: Psixologik-pyedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari</b> .....	7
2.1. Psixologik pedagogik diagnostikaning qo'llanishida ahamiyatga ega bo'lgan sohalar. ....	7
2.2. Psixologik pedagogik yo'nalishlari. ....	7
2.3. Psixologik pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari. ....	8
<b>3-Mavzu: Psixologik-pedagogik diagnostika metodlari va bosqichlari</b> ...	11
3.1. Psixologik-pedagogik diagnostikaning metodlari. Testlash aqliy rivojlanishni baholash metodi sifatida. ....	11
3.2. Intellektual faoliyatni aniqlash. ....	12
3.3. Aqliy rivojlanish darajasining aniqlashning hozirgi zamon metodlari. ....	18
3.4. Pedagogik diagnostik faoliyatning bosqichlari. ....	19
<b>4-Mavzu: Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari</b> .....	20
4.1. O'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini va o'zlashtirishning pastligi sabablarini va ular orasidagi bog'liliklari. ....	20
4.2. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasini aniqlash. ....	21
4.3. Ortiqcha tushunchani topish va tushunchalarni taqqoslash va hokazo metodlar.....	22
<b>5-Mavzu: Murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlar</b> .....	33
5.1. Murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlash (Murakkab analogiya).....	33
5.2. Oddiy analogiya. ....	34
5.3. O'quvchining o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olishi	36
<b>6-Mavzu:Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilishning vazifalari</b> .....	37
6.1. Ta'lim jarayonini psixodiagnostika qilishning asosiy vazifalari. ....	37
6.2. Pedagogik jarayon diagnostikasi. ....	38
6.3. Ta'lim jarayonining individual xususiyatlarining diagnostikasi. ....	38
6.4. Rivojlanishda orqada qolishning turli formalari diagnostikasi va ularning korreksiyasi. ....	39
6.5. O'quv jarayoni effektivligini psixodiagnostika qilish, psixodiagnostik tadqiq qilishga qo'yilgan talablar. ....	39
6.6. Metodlarning sifatlilik kriteriyalarini aniqlash va ishonchliligini tekshirish. .....	40

<b>7-Mavzu: Psixodiagnostikaning psixometrik asoslari</b> .....	42
7.1. Test normalarining reprezentativligi.....	42
7.2. Parametrlarni hisoblash va taqsimot tiplari. ....	44
7.3. Normal qonunni antologiyalashtirishning noqonuniyligi. ....	45
7.4. Taqsimot barqarorligini tekshirish usullari. ....	47
<b>8-Mavzu: Veksler metodi va uning moslashtirilgan varianti. intellekt va uni o'lchash</b> .....	50
8.1. Intellekt va uni o'lchash (S.L.Rubinshteyn). ....	50
8.2. Veksler metodi bo'yicha intellektni o'lchash. ....	51
8.3. Umumiy xabardor bo'lish va tushunishning subtesti.....	51
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	56



